O‘quv qo‘llanma

C++

T.R.Shafiyev
Sh.E.Nazarov
Z.K.Niyozova

Dasturlash asoslari fanidan

MASALALAR VA YECHIMLAR

ISBN 978-991073462-5

DASTURLASH ASOSLARI FANIDAN MASALALAR VA YECHIMLAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

T.R.Shafiyev, Sh.E.Nazarov, Z.K.Niyozova

DASTURLASH ASOSLARI FANIDAN MASALALAR VA YECHIMLAR (C++)



O‘QUV QO‘LLANMA

“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro-2024

UO‘K: 004.424.378.1
KBK: 32.973
Sh 53

Shafiyev Tursun Rustamovich, Nazarov Shahzod Erkinovich, Niyozova Zaynabbegim Komilovna. Dasturlash asoslari fanidan masalalar va yechimlar (C++) [Matn]:o‘quv qo‘llanma / T.R. Shafiyev, Sh.E.Nazarov, Z.K. Niyozova – Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI” Kamolot nashriyoti , 2024 - 148 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Dasturlash” bo‘yicha asosiy nazariy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga, shuning bilan birga dastur tuzish jarayonida dasturlashga oid kutubxonalar, operatorlar, matematik va mantiqiy amallar boshqa vositalarning maqsadi, vazifalari, turlari haqida ma’lumot berishga qaratilgan. Qo‘llanmada dasturlashtirishga kirish jarayonida kerak bo‘ladigan asosiy mavzular yoritilgan hamda ushbu mavzular bo‘yicha masalalar yechib ko‘rsatilgan. Mavzularni mustahkamlash maqsadida mustaqil ishlash uchun alohida topshiriqlar berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60540100-Matematika, 60531000-Mexanika va matematik modellashtirish ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Dasturlash asoslari” fanidan talabalar foydalanishlari uchun tuzilgan.

Taqrizchilar:

F.N. Nurulloyev - Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

U.M. Ibragimov - Buxoro muhandislik-texnologiyalari instituti “Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya tizimlari” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

ISBN 978-9910-734-62-0

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024-yil “3” fevraldagi “60”-sonli buyrug‘iga asosan ruxsat berildi.

MUNDARIJA

KIRISH

Zamonaviy dunyoda, hayotni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilishning iloji yo‘q. Ular bizning hayotimizga qat’iy kirishdi, axborot texnologiyalari insoniyat hayotining barcha sohalarida qo‘llaniladi, ayniqsa ikki tomonlama muhim rol o‘ynaydi. Axborot texnologiyalari insoniyatning barcha to‘plangan tajribasini amaliy foydalanish uchun mos formatlangan shaklda aks ettiradi. Shuningdek, u ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish uchun ilmiy bilim va materialistik tajribani jamlaydi, shu bilan birga mehnat, vaqt, energiya va moddiy xarajatlarni tejaydi.

"Bugun O‘zbekiston barcha sohalarda o‘zini namoyon qilmoqda. Axborot texnologiyalariga o‘z vaqtida e’tibor qaratishimiz yaxshi natijalar bermoqda. Bitta dasturiy mahsulot davlatga korrupsiya, byurokratiyani yo‘q qilish va odamlar uchun qulayliklar yaratishda katta yordamdir. Yodingizda bo‘lsin, sizning ishingiz juda muhim", — Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021 yil 26 avgustdagi PQ-5234-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-sonli “«Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni yurtimizda Axborotlashtirish sohasiga bo‘lgan katta e’tiborni ko‘rsatadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60540100-Matematika, 60531000-Mexanika va matematik modellashtirish ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Dasturlash asoslari”, fanidan talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlash, dasturlash bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

1-mavzu. Algoritm tushunchasi va tasvirlash usullari.

Algoritm bu oldimizga qo‘yilgan masalani yechish zarur bo‘lgan amallar ketma-ketligidir.

Algoritm so‘zi va tushunchasi IX asrda yashab ijod etgan buyur alloma Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bog‘liq. Algoritm so‘zi Al-Xorazmiy nomini Yevropa olimlari tomonidan buzib talaffuz qilinishidan yuzaga kelgan. Al-Xorazmiy birinchi bo‘lib o‘nlik sanoq sistemasining tamoyillarini va undagi to‘rtta amallarni bajarish qoidalarini asoslab bergan.

Algoritmning asosiy xossalari. Algoritmning 5-ta asosiy xossasi bor:

Diskretlilik (Cheklilik). Bu xossaning mazmuni algoritmlarni doimo chekli qadamlardan iborat qilib bo‘laklash imkoniyati mavjudligida. Ya’ni uni chekli sondagi oddiy ko‘rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib qo‘llay olmasak, uni algoritm deb bo‘lmaydi.

Tushunarlilik. Biz kundalik hayotimizda berilgan algoritmlar bilan ishlayotgan elektron soatlar, mashinalar, dastgohlar, kompyuterlar, turli avtomatik va mexanik qurilmalarni kuzatamiz.

Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko‘rsatmalar, uning uchun tushunarli mazmunda bo‘lishi shart, aks holda ijrochi oddiygina amalni ham bajara olmaydi. Undan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin.

Har bir ijrochining bajarishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatmalar yoki buyruqlar majmuasi mavjud, u ijrochining ko‘rsatmalar tizimi (sistemasi) deyiladi. Demak, ijrochi uchun berilayotgan har bir ko‘rsatma ijrochining ko‘rsatmalar tizimiga mansub bo‘lishi lozim.

Ko‘rsatmalarni ijrochining ko‘rsatmalar tizimiga tegishli bo‘ladigan qilib ifodalay bilishimiz muhim ahamiyatga ega. Masalan, quyi sinfning a’lochi o‘quvchisi "son kvadratga oshirilsin" degan ko‘rsatmani tushunmasligi natijasida bajara olmaydi, lekin "son o‘zini o‘ziga ko‘paytirilsin" shaklidagi ko‘rsatmani bemalol bajaradi, chunki u ko‘rsatma mazmunidan ko‘paytirish amalini bajarish kerakligini anglaydi.

Aniqlik. Ijrochiga berilayotgan ko‘rsatmalar aniq mazmunda bo‘lishi zarur. Chunki ko‘rsatmadagi noaniqliklar mo‘ljaldagi

maqsadga erishishga olib kelmaydi. Inson uchun tushunarli bo‘lgan "3-4 marta silkitilsin", "5-10 daqiqa qizdirilsin", "1-2 qoshiq solinsin", "tenglamalardan biri yechilsin" kabi noaniq ko‘rsatmalar robot yoki kompyuterni qiyin ahvolga solib qo‘yadi.

Bundan tashqari, ko‘rsatmalarning qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ko‘rsatmalar aniq berilishi va faqat algoritmda ko‘rsatilgan tartibda bajarilishi shart ekan.

Ommaviylik. Har bir algoritm mazmuniga ko‘ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun ham o‘rinli bo‘lishi kerak. Ya’ni masaladagi boshlang‘ich ma’lumotlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar algoritm shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqli bo‘lishi kerak. Masalan, ikki oddiy kasrning umumiy maxrajini topish algoritmi, kasrlarni turlicha o‘zgartirib bersangiz ham ularning umumiy maxrajlarini aniqlab beraveradi. Yoki uchburchakning yuzini topish algoritmi, uchburchakning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uning yuzini hisoblab beraveradi.

Natijaviylik. Har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan so‘ng albatta natija berishi shart. Bajariladigan amallar ko‘p bo‘lsa ham baribir natijaga olib kelishi kerak. Chekli qadamdan so‘ng qo‘yilgan masala yechimga ega emasligini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko‘rilayotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb atay olmaymiz.

Algoritmning tasvirlash usullari .Yuqorida ko‘rilgan *misol*larda odatda biz masalani yechish algoritmini so‘zlar va matematik formulalar orqali ifodaladik. Lekin algoritm boshqa ko‘rinishlarda ham berilishi mumkin. Biz endi algoritmlarning eng ko‘p uchraydigan turlari bilan tanishamiz.

1.Algoritmning so‘zlar orqali ifodalanishi. Bu usulda ijrochi uchun beriladigan har bir ko‘rsatma jumlalar, so‘zlar orqali buyruq shaklida beriladi.

2. Algoritmning formulalar bilan berilish usulidan matematika, fizika, kimyo kabi aniq fanlardagi formulalarni o‘rganishda foydalaniladi. Bu usulni ba’zan analitik ifodalash deyiladi.

3. **Algoritmlarning grafik shaklida tasvirlanishida** algoritmlar maxsus geometrik figuralar yordamida tasvirlanadi va bu grafik ko‘rinishi blok-sxema deyiladi.

4. **Algoritmning jadval ko‘rinishda berilishi**. Algoritmning bu tarzda tasvirlanishdan ham ko‘p foydalanamiz. Masalan, maktabda

qo‘llanib kelinayotgan to‘rt xonali matematik jadvallar yoki turli xil lotereyalar jadvallari. Funksiyalarning grafiklarini chizishda ham algoritmlarning qiymatlari jadvali ko‘rinishlaridan foydalanamiz. Bu kabi jadvallardan foydalanish algoritmlari sodda bo‘lgan tufayli ularni o‘zlashtirib olish oson.

Yuqorida ko‘rilgan algoritmlarning tasvirlash usullarining asosiy maqsadi, qo‘yilgan masalani yechish uchun zarur bo‘lgan amallar ketma-ketligining eng qulay holatini aniqlash va shu bilan odam tomonidan dastur yozishni yanada osonlashtirishdan iborat. Aslida dastur ham algoritmning boshqa bir ko‘rinishi bo‘lib, u insonning kompyuter bilan muloqotini qulayroq amalga oshirish uchun mo‘ljallangan.

Blok-sxemalarni tuzishda foydalaniladigan asosiy sodda geometrik figuralardan iborat bo‘lib, u 1.1 jadvalda keltirilgan.

1.1.-jadval. Blok sxema ko‘rinishida ifodalaniladigan algoritmlarda ishlatiladigan figuralar va ularning vazifasi.

Nomi	Belgilanishi	Bajaradigan vazifasi
Jarayon		Bir yoki bir nechta amallarni bajarilishi natijasida ma’lumotlarning o‘zgarishi
Qaror		Biror shartga bog‘lik ravishda algoritmning bajarilish yo‘nalishini tanlash
Shakl o‘zgartirish		Dasturni o‘zgartiruvchi buyruq yoki buyruqlar turkumini o‘zgartirish amalini bajarish

Avval aniqlangan jarayon		Oldindan ishlab chiqilgan dastur yoki algoritmdan foydalanish
Kiritish Chiqarish		Axborotlarni qayta ishlash mumkin bo‘lgan shaklga o‘tkazish yoki olingan natijani tasvirlash
Displey		Kompyuterga ulangan monitordan axborotlarni kiritish yoki chiqarish
Xujjat		Axborotlarni qog’ozga chiqarish yoki qog’ozdan kiritish
Axborotlar oqimi chizig‘i		Bloklar orasidagi bog‘lanishlarni tasvirlash
Bog‘lagich		Uzilib qolgan axborot oqimlarini ulash belgisi
Boshlash Tugatish		Axborotni qayta ishlashni boshlash, vaqtincha yoki butunlay to‘xtatish
Izoh		Bloklarga tegishli turli xildagi tushuntirishlar

Blok-sxemalar bilan ishlashni yaxshilab o‘zlashtirib olish zarur, chunki bu usul algoritmlarni ifodalashning qulay vositalaridan biri bo‘lib, dastur tuzishni osonlashtiradi, dasturlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Algoritmik tillarda blok — sxemaning asosiy strukturalariga maxsus operatorlar mos keladi. Shuni aytish kerakni, blok-sxemalardagi yozuvlar odatdagi yozuvlardan katta farq qilmaydi.

Misol sifatida $ax^2+bx+c=0$ kvadrat tenglamani yechish algoritmining blok-sxemasi quyida keltirilgan.



1.1-rasm. Kvadrat tenglamani yechish algoritmi

Chiziqli algoritmlar. Har qanday murakkab algoritmni ham uchta asosiy struktura yordamida tasvirlash mumkin. Bular ketma-ketlik, ayri va takrorlash strukturalaridir. Bu strukturalar asosida chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi hisoblash jarayonlarining algoritmlarini tuzish mumkin. Umuman olganda, algoritmlarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- chiziqli algoritmlar;
- tarmoqlanuvchi algoritmlar;
- takrorlanuvchi yoki siklik algoritmlar;
- ichma-ich joylashgan siklik algoritmlar;
- rekurrent algoritmlar;
- takrorlanishlar soni oldindan no‘malum algoritmlar;
- ketma-ket yaqinlashuvchi algoritmlar.



1.2 rasm. Chiziqli algoritmlar blok — sxemasining umumiy strukturasi

Faqat ketma-ket bajariladigan amallardan tashkil topgan algoritmlarga-chiziqli algoritmlar deyiladi. Bunday algoritmni ifodalash uchun ketma-ketlik strukturasi ishlatiladi. Strukturada bajariladigan amal mos keluvchi shakl bilan ko‘rsatiladi. Chiziqli algoritmlar blok-sxemasining umumiy strukturasini quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

Tarmoqlanuvchi algoritmlar. Agar hisoblash jarayoni biror bir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo‘yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmoqlanuvchi algoritmlar uchun ayri strukturasi ishlatiladi. Tarmoqlanuvchi strukturasi berilgan shartning bajarilishiga qarab ko‘rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta’minlaydi.



1.3-rasm. Tarmoqlanishning umumiy ko‘rinishi

Berilgan shart romb orqali ifodalanadi, P-berilgan shart. Agar shart bajarilsa, "ha" tarmoq bo‘yicha a amal, shart bajarilmasa "yo‘q" tarmoq bo‘yicha b amal bajariladi.

Tarmoqlanuvchi algoritmga tipik *misol* sifatida quyidagi sodda *misol*ni qaraylik.

1- Misol: $Y = \begin{cases} x^2, agar\ x \geq 0 \\ -x^2, agar\ x < 0 \end{cases}$



1.4-rasm.Interval ko‘rinishidagi funksiya qiymatini hisoblash algoritmi

Berilgan x ning qiymatiga bog‘lik holda, agar u musbat bo‘lsa «ha» tarmoq bo‘yicha $y=x^2$ funksiyaning qiymati, aks holda $y=-x^2$ funksiyaning qiymati hisoblanadi. Ko‘pgina masalalarni yechishda, shart asosida tarmoqlanuvchi algoritmlarning ikkita tarmog‘idan bittasining, ya’ni yoki «ha» yoki «yo‘q» ning bajarilishi yetarli bo‘ladi. Bu holat tarmoqlanuvchi algoritmning xususiy holi sifatida

aylanish strukturasi deb atash mumkin. Aylanish strukturasi quyidagi ko‘rinishga ega:

Takrorlanuvchi algoritmlar .Agar biror masalani yechish uchun tuzilgan zarur bo‘lgan amallar ketma-ketligining ma’lum bir qismi biror parametrga bog‘liq ko‘p marta qayta bajarilsa, bunday algoritm takrorlanuvchi algoritm yoki siklik algoritmlar deyiladi. Takrorlanuvchi algoritmlarga tipik *misol* sifatida odatda qatorlarning yig‘indisi yoki ko‘paytmasini hisoblash jarayonlarini qarash mumkin. Quyidagi yig‘indini hisoblash algoritmini tuzamiz:



1.5-rasm. Aylanish strukturasining umumiy ko‘rinishi

$$S = 1 + 2 + 3 + ... + N = \sum_{i=1}^{N} i$$

Bu yig‘indini hisoblash uchun i=0 da S=0 deb olamiz va $i=i+1$ da $S=S+i$ ni hisoblaymiz. Bu yerda birinchi va ikkinchi qadamlar uchun yig‘indi hisoblanadi va keyingi qadamda i parametr yana bittaga ortiriladi va navbatdagi raqam avvalgi yig‘indi S ning ustiga qo‘shiladi va bu jarayon shu tartibda to $i<N$ sharti bajarilmaguncha davom ettiriladi va natijada izlangan yig‘indiga ega bo‘lamiz. Bu fikrlarni quyidagi algoritm sifatida ifodalash mumkin:
N –berilgan bo‘lsin,
$i=0$ berilsin,
$S=0$ berilsin,
$i=i+1$ hisoblansin,
$S=S+i$ hisoblansin,

i<*N* tekshirilsin va bu shart bajarilsa, 4-satrga qaytilsin, aks holda keyingi qatorga o‘tilsin, *S* ning qiymati chop etilsin.



1.6-rasm.1 dan *n* gacha bo‘lgan sonlar yig‘indisini hisoblash algoritmi



1.7-rasm. 1 dan *n* gacha bo‘lgan sonlar yig‘indisini hisoblash algoritmi

Yuqorida keltirilgan algoritm va blok sxemadan (1.6-rasm) ko‘rinib turibdiki amallar ketma-ketligining ma’lum qismi parametr *i* ga nisbatan N marta takrorlanadi.

Yuqorida ko‘rilgan yig‘indi blok sxemalaridagi takrorlanuvchi qismlariga (aylana ichiga olingan) quyidagi sharti keyin berilgan siklik struktura mos kelishini ko‘rish mumkin. Yuqoridagi blok sxemalarda shartni oldin tekshiriladigan holatda chizish mumkin edi. Masalan, yig‘indining algoritmini qaraylik. Bu blok sxemaning takrorlanuvchi qismiga quyidagi, sharti oldin berilgan siklik strukturaning mos kelishini ko‘rish mumkin.

Blok sxemalarining takrorlanuvchi qismlarini, quyidagi parametrli takrorlash strukturasi ko‘rinishida ham ifodalash mumkin.



1.8-rasm. Parametrli takrorlash operatorining umumiy ko‘rinishi

Parametrli takrorlash operatoriga misol sifatida berilgan x=1,2,3,.....10 larda $y = \frac{ax}{a+x}$ funksiyasining qiymatlarini hisoblash blok sxemasini qarash mumkin (1.9-rasm.).

Ichma-ich joylashgan siklik algoritmlar. Ba’zan, takrorlanuvchi algoritmlar bir nechta parametrlarga bog‘liq bo‘ladi. Odatda bunday algoritmlarni ichma-ich joylashgan algortmlar deb ataladi.

Misol sifati berilgan nxm o‘lchovli a_{ij} –matritsa elementlarining yig‘indisini hisoblash masalasini qaraylik.

$$S = \sum_{i=1}^{n} \prod_{j=1}^{n} (i+j)^2$$

Bu yig‘indi hisoblash uchun, *i* ning har bir qiymatida *j* bo‘yicha ko‘paytmani hisoblab, avval yig‘indi ustiga ketma-ket qo‘shib borish kerak bo‘ladi. Bu jarayon quyidagi blok–sxemada aks ettirilgan. Bu yerda *i*-tashqi sikl — yig‘indi uchun, *j*-esa ichki sikl-ko‘paytmani hosil qilish uchun foydalanilgan.



1.19-rasm. Parametrli takrorlash operatoriga doir algoritm



1.10-rasm. Ichma-ich joylashgan siklik algoritmga doir blok-sxema

2-mavzu. C++ dasturlash tilining tuzilishi va shakli.

C++ dasturlash tili to‘g‘risidagi asosiy tushunchalar:

- C++ bu yuqori unumli ilovalar yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan o‘zaro faoliyat platformalar tili;
- C++ Bjarne Stroustrup tomonidan C tilining kengaytmasi sifatida ishlab chiqilgan;
- C++ dasturchilarga tizim resurslari va xotira ustidan yuqori darajadagi nazoratni beradi;
- Til 2011,2014,2017 va 2020 yillarda C++1, C++14,C++17,C++20 ga 4 marta yangilandi.

C++ dasturlash tili afzalliklari:

- ✓ C++ dunyodagi eng mashhur dasturlash tillaridan biridir;
- ✓ C++ tilini hozirgi operatsion tizimlarda, foydalanuvchi grafik interfeyslarida va o‘rnatilgan tizimlarda topish mumkin;
- ✓ C++ bu ob’yektga yo‘naltirilgan dasturlash tili bo‘lib, u dasturlarga aniq tuzilma beradi, kodni qayta ishlatishga imkon beradi va ishlab chiqish xarajatlarini kamaytiradi;
- ✓ C++ portativ hisoblanadi va bir nechta platformalarga moslasha oladigan ilovalarni ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin;
- ✓ C++ bu qiziqarli va o‘rganish oson;
- ✓ C++ tili C, C# va Java tillariga yaqin bo‘lgani uchun dasturchilar uchun C++ tiliga yoki aksincha o‘tishni osonlashtiradi.

C va C++ versiyasi o‘rtasidagi farqlar:

- C++ tili C tilining kengaytmasi sifatida ishlab chiqilgan va ikkala til ham deyarli bir xil sintaksisga ega;
- C va C++ o‘rtasidagi asosiy farq shundaki , C++ sinflar va ob’yektlarni qo‘llab quvvatlaydi, C esa qo‘llab quvvatlamaydi.

C++ dasturlash tili sintaksisi.

C++ sintaksisini yaxshiroq tushunishimiz uchun quyidagi kodni yozamiz va alohida qatorlarga ajratib tavsif beramiz:

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
cout<<"Hello woorld!";
return 0;
}
	Hello world!

Misol tushuntirilishi:

1-**qator:**(5-qatorda foydalanilgan) kabi kiritish va chiqarish ob'yektlari bilan ishlashga imkon beruvchi sarlavha fayllari kutubxonasi #include<iostream> . Sarlavha fayllari C++ dasturlariga funksionallik qo'shadi.

2-**qator:** using namespace std; standart kutubxonadagi ob'yektlar va o'zgaruvchilar uchun nomlardan foydalanishimiz mumkinligini anglatadi.

3-**qator:** Bo'sh qator. C++ bo'sh qatorga e'tibor bermaydi. Lekin biz undan kodni o'qilishi mumkin bo'lishi uchun foydalanamiz.

4-qator:C++ dasturida har doim ishlatiladigan yana bir narsa int main(). Bu funksiya deyiladi. Figurali qavslar ichidagi har qanday kod {} ichida bajariladi.

5-qator: cout matnni chiqarish/chop etish uchun *kiritish operatori()* bilan birgalikda foydalaniladigan **obyekt**. Bizning misolimizda"Hello world!" deb chiqadi.

Yodda saqlash uchun: Har bir C++ bayonoti nuqtali vergul bilan tugaydi. Kompilyator bo'shliqlarga e'tibor bermaydi. Biroq bir nechta satr kodni o'qishni yanada qulay qiladi.

6-**qator:** return 0 asosiy funksiyani tugatadi.

7-qator: } asosiy funksiyani amalda tugatish uchun figurali qavs qo'yishni unutmang!

C++ algoritmik tilining alifbosi quyidagilardan iborat:

- Katta va kichik lotin harflari;
- 0 dan 9 gacha raqamlar;
- Maxsus belgilar (+,-,*,/,=,[,],<,>,{,}….) ni o‘z ichiga oladi.

C++ tilida so‘z deb bir nechta belgilar ketma ketligi tushuniladi.xizmatchi so‘z deb c++ tilidagi standart nom tushuniladi.

C++ tilida ma’lumotlarning elementlari bo‘lib **o‘zgaruvchilar**, **o‘zgarmaslar**, **izohlar** xizmat qiladi.

O‘zgaruvchilar:

Xotiraning nomlangan qismi bo‘lib, o‘zida ma’lum bir toifadagi qiymatlarni saqlaydi. O‘zgaruvchining nomi va qiymati bo‘ladi. O‘zgaruvchining nomi orqali qiymat saqlanayotgan xotira qismiga murojaat qilinadi. Programma ishlashi jarayonida o‘zgaruvchining qiymatini o‘zgartirish mumkin. Har qanday o‘zgaruvchini ishlatishdan oldin uni e’lon qilish kerak bo‘ladi.

O‘zgarmaslar:

Hisoblash jarayonida qiymatini o‘zgartirmaydigan kattaliklarga aytiladi.

Izohlar:

Dasturning ma’lum qismini tavsiflash uchun ishlatiladi va bu qatorda hech qanday amal bajarilmaydi, ya’ni programmaning biror qismini yaxshiroq tushunish uchun xizmat qiladi.izoh “/*” va “*/” simvollari orasida beriladi.

Operator tilning yakunlangan jumlasi hisoblanadi va ma’lumotlar tahlilining bosqichini ifodalaydi. Operatorlar nuqtali vergul “;” bilan ajratiladi. C++ da operatorlar programmada keltirilgan ketma-ketlikda bajariladi.

Identifikator programmist tomonidan programma elementlari (funksiya,o‘zgaruvchilar,o‘zgarmaslar….) uchun ixtiyoriy tanlangan nom.

Identifikator tanlanganda quyidagilarga amal berish kerak:

- ✓ Identifikator lotin harflaridan boshlanishi shart;
- ✓ Ikkinchi simvoldan boshlab raqamlardan foydalanish mumkin;
- ✓ C++ da katta kichik harflar farq qiladi. Ya’ni quyidagilarning har biri alohida identifikator hisoblanadi: KATTA,katta,Katta,KaTta,…

✓ Bo‘sh joy (probel) c++ da so‘zlarni ajratish uchun ishlatiladi. Shuning uchun identifikatorda bo‘sh joydan foydalanib bo‘lmaydi;

✓ Xizmatchi (int,float,for,while) kabi Identifikator sifatida ishlatib bo‘lmaydi.

C++ da programma funksiya yoki funksiyalardan tashkil topadi. Agar programma bir nechta funksiyadan iborat bo‘lsa bir funksiyaning nomi ***main*** bo‘lishi shart. Programma aynan ***main*** funksiyasining birinchi operatoridan boshlab bajariladi.

Qoida bo‘yicha funksiya qandaydir bir qiymatni hisoblash uchun ishlatiladi. Shuning uchun funksiya nomi oldidan funksiya qaytaradigan qiymat toifasi yoziladi. Agar funksiya hech qanday qiymat qaytarmaydigan bo‘lsa, ***void*** toifasi yoziladi. Agar funksiya qaytaradigan qiymat toifasi yozilmagan bo‘lsa, int(butun toifali) qiymat qaytaradi deb qabul qilinadi.

Klaviaturadan ma’lumotlarni kiritish va ekranga chiqarish uchun <**iostream**> sarlavha faylidan foydalaniladi. Bu satr klaviatura orqali ma’lumot kirituvchi va ekranga nimadir chiqaruvchi har qanday dasturda bo‘lishi shart. Ba’zi eski kompilyatorlarda <**iostream.h**> yozilishi mumkin.

Dasturda ishlatiladigan barcha o‘zgaruvchilarni qaysi toifaga tegishli ekanligini e’lon qilish kerak. Ma’lumotlarni e’lon qilishning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

toifa_nomi o‘zgaruvchi;

Agar bir nechta o‘zgaruvchi bir toifaga mansub bo‘lsa, ularni vergul bilan ajratish mumkin.

Dasturda ma’lumot kiritish va ekranga chiqarish uchun **#include<iostream>** ni dasturga qo‘shish shart.

Ma’lumotlarni kiritish **std::cin>>** , ma’lumotlarni chiqarish **std::cout<<** operatori orqali amalga oshiriladi.

Quyida a va b sonlarining yig‘indisini topadigan dastur tuzamiz.

```
#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int a,b,c;
cout<<”a=”; cin>>a;
cout<<”b=”;
cin>>b;
c=a+b;
cout<<c<<endl;
return 0;
}
```

3-mavzu. O‘zgaruvchilar va ifodalar.

O‘zgaruvchi—*Xotiraning nomlangan qismi bo‘lib, o‘zida ma’lum bir toifadagi qiymatlarni saqlaydi. O‘zgaruvchining nomi va qiymatlari bo‘ladi. O‘zgaruvchining nomi orqali qiymat saqlanayotgan xotira qismiga murojaat qilinadi. Programma ishlashi jarayonida o‘zgaruvchining qiymatini o‘zgartirish mumkin. Har qanday o‘zgaruvchini ishlatishdan oldin, uni e’lon qilish lozim.*

- **int**— 123 yoki -123 kabi butun sonlarni (butun sonlar) saqlaydi.
- **double** - 19.99 yoki -19.99 kabi o‘nli raqamlar raqamlarini saqlaydi
- **char**- "a" yoki "B" kabi bitta belgilarni saqlaydi. **Char** qiymatlari bitta tirnoqli qavslar bilan o‘ralgan.
- **string**- "Hello World" kabi matnlarni saqlaydi. Qator qiymatlari qo‘shtirnoq bilan o‘ralgan
- **bool** - qiymatlarni ikki holat bilan saqlaydi: rost yoki yolg‘on, **True** yoki **False** (**1** yoki **0**)

O‘zgaruvchi qisqa nomga ega bo‘lishi mumkin (masalan, x va y) yoki ko‘proq tavsiflovchi nom (yosh, cpp, master va h.k). **C++** o‘zgaruvchilar uchun qoidalar:

- O‘zgaruvchilar nomi raqam bilan boshlanmasligi kerak;
- O‘zgaruvchi **[a-Z]** harf bilan boshlanib raqamlar ham aralashtirish mumkin *(misol: _ali123, son90 va h.k)*
- O‘zgaruvchi nomida katta va kichik harflar ahamiyatga ega bo‘lib misol uchun **Aka** va **aka** ikki xil o‘zgaruvchi nomi hisoblanadi! (Aka, aka, AkA, aKa)

Dastur biror bir aniqlangan ketma — ketlikda bajariluvchi komandalar to‘plamidan iborat. C++ tilida ifodalar biror bir hisoblash natijasini qaytaruvchi boshqa ifodalar ketma-ketligini boshqaradi yoki hech nima qilmaydi (nol ifodalar).

C++ tilida barcha ifodalar nuqtali vergul bilan yakunlanadi. Ifodaga misol qilib o‘zlashtirish amalini olish mumkin.

x=a+b;

Algebradan farqli ravishda bu ifoda x o’zgaruvchisi a+b ga teng ekanligini anglatmaydi. Bu ifodani quyidagicha tushunish kerak:

a va b o‘zgaruvchilarni qiymatlarini yig‘ib natijasini x o‘zgaruvchiga beramiz yoki x o‘zgaruvchiga a+b qiymatni o‘zlashtiramiz. Bu ifoda birdaniga ikkita amalni bajaradi, yig‘indini

hisoblaydi va natijani o‘zlashtiradi. Ifodadan so‘ng nuqtali vergul qo‘yiladi. (=) operatori o‘zidan chap tomondagi operandga o‘ng tomondagi operandlar ustida bajarilgan amallar natijasini o‘zlashtiradi.

Bo‘sh joy (probel) belgisi.

Bo‘sh joy belgilariga nafaqat probel, balki yangi satrga o‘tish va tabulyasiya belgilari ham kiradi. Yuqorida keltirilgan ifodani quyidagicha ham yozish mumkin:

x= a+ b;

Bu variantda keltirilgan ifoda ko‘rimsiz va tushunarsiz bo‘lsa ham to‘g‘ridir. Bo‘sh joy belgilari dasturning o‘qilishini ta’minlaydi. Bloklar va kompleks ifodalar.

Ba’zan dastur tushunarli bo‘lishi uchun o‘zaro mantiqiy bog‘langan ifodalarni blok deb ataluvchi komplekslarga birlashtirish qulay hisoblanadi. Blok ochiluvchi figurali qavs ({) bilan boshlanadi va yopiluvchi figurali qavs (}) bilan tugaydi. Blok ochilganda va yopilganda nuqtali vergul qo‘yilmaydi.

```
{   temp= a;
  a = b;
  b = temp; }
```

Bu blok xuddi bir ifodadek bajariladi, u a va v o‘zgaruvchilar qiymatlarini almashtiradi.

Ishlatishdan oldin har qanday o‘zgaruvchini aniqlash kerak. O‘zgaruvchini aniqlash sintaksisi quyidagicha:

o‘zgaruvchining _turi o‘zgaruvchining_nomi;

O‘zgaruvchilarni nomlash.

O‘zgaruvchining nomi alfavit-raqamli belgilar ketma-ketligi va pastki chiziq belgisi _ bilan yaratilishi mumkin. Bunday holda, o‘zgaruvchining nomi alifbo belgisi yoki pastki chiziq bilan boshlanishi kerak.

Bundan tashqari, C++ kalit so‘zlarini o‘zgaruvchining nomi sifatida ishlatish mumkin emas, ya’ni *for* yoki *if* kalit so‘zlarini ishlatish mumkin emas. Ammo bunday so‘zlar unchalik ko‘p emas va C++ tilini o‘rganish jarayonida siz kalit so‘zlarni ishlatish jarayonida tezda yodlab olasiz qaysi so‘zlar muhimligini bilib olasiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, quyidagi nomlar tavsiya etilmaydi:

- ikkita pastki chiziq bilan boshlanadigan ismlar (Masalan __Nom);
- pastki chiziq bilan boshlanadigan ismlar, so‘ngra bosh alifbo belgisi (Masalan, _A12);
- pastki chiziq bilan boshlanadi global domendagi nomlar (main funktsiyadan tashqari);

Aslini olganda, bunday nomlar bilan kompilyator tomonidan ishlab chiqarilgan yoki C++plaginli standart modullarida aniqlangan nomlar (masalan, o‘zgaruvchan nomlar) bilan to‘qnashishi ehtimoli ortadi. Shuning uchun, ba'zi dasturchilar o‘zgaruvchi nomini pastki chiziq bilan boshlashni umuman tavsiya etmaydi.

Initsializatsiya.

O‘zgaruvchini aniqlagandan so‘ng, ba'zi bir qiymat berilishi mumkin. O‘zgaruvchiga boshlang‘ich qiymatni berish *initsializatsiya* deb ataladi. C++ da initsializatsiyaning uch turi mavjud:

- O‘zlashtirish notatsiyasi (assignment notation);
- Funksional notatsiya (functional notation)
- Figurali qavslarda initsializatsiya (braced initialization)

Endi yuqorida keltirilgan initsializatsiya turlari haqida batafsil tanishib chiqamiz.

O‘zlashtirish notatsiyasining mohiyati-o‘zgaruvchiga initsializatsiy operatoridan ("teng" yoki =belgisi) foydalanib, biz ba'zi qiymatlarni o‘яlashtiramiz:

```
int age;
age = 20;
```

Bu erda o‘zgaruvchining qiymati sifatida 20 raqami berildi. 20, 123.456 (kasr son), "A" yoki "salom" kabi raqamlar, belgilar, satrlar kabi har qanday turdagi doimiy qiymatlar literal deb ataladi. Ya'ni, bu holda, o‘zgaruvchiga butun son literal 20 tayinlanadi.

Funksional notatsiya. Funktsional belgilar bilan, o‘zgaruvchi nomidan keyin uning qiymati qavs ichida ko‘rsatiladi:

```
int age (38);   // functional notation
```

Bunday holda, o‘zgaruvchi 38 qiymatiga ega bo‘ladi.

Quyida keltirilgan uch holatda ham o‘zgaruvchiga berilgan qiymat murakkab baholash ifodasini ko‘rsatishi mumkin. Masalan:

```
int age1 {22 + 5};
int age2 (22 + 5);
```

```
int age3 = 22 + 5;
```

Figurali qavslarda initsializatsiya. Figurali qavsli initsializatsiyani ishga tushirishda, o‘zgaruvchining nomidan keyin uning qiymati figurali qavslar ichida ko‘rsatiladi:

```
int age {38};   // braced initialization
```

Yuqorida keltirilgan holatlarni takrorlash uchun ketma-ket bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zgaruvchilarni ishga tushirishingiz mumkin:

```
int age1 {22}, age2 (23), age3 = 24;
```

Ko‘pgina hollarda, initsializatsiyaning uchta varianti ham tengdir. Biroq, aniq toifadagi transformatsiya qo‘llanilganda, figurali qavslarda ishga tushirish biroz xavfsizroq bo‘ladi. Umuman olganda, o‘zgaruvchiga uning turiga mos keladigan qiymat berilishi kutiladi. Agar bunday bo‘lmasa, kompilyator tayinlangan qiymatni o‘zgaruvchi turiga aylantirishga harakat qiladi. Konstriktiv transformatsiya bir turdagi qiymatni cheklangan qiymat diapazoniga o‘zgartiradi. Shunday qilib, konvertatsiya ma'lumotlarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Quyidagi misolda buni ko‘rishimiz mumkin:

```
#include <iostream>

int main()
{
   int age1 (23.5);
   int age2 = 24.5;
   std::cout<<"Age1 = " << age1 << "\n";
   std::cout<<"Age2 = " << age2 << "\n";
}
```

Bu yerda int tipini, ya'ni butun sonni ifodalovchi age1 va age2 o‘zgaruvchilarga mos ravishda 23,5 va 24,5 kasr qiymati berildi. Ammo ko‘pchilik kompilyatorlarda, bu kod odatdagidek kompilyatsiya qilinadi va ishlaydi. Biz quyidagi natijani olamiz:

Age1 = 23
Age2 = 24

Endi figurali qavslar orqali ishga tushirishga misol keltiramiz:

```
#include <iostream>

int main()
{
   int age {22.5};
   std::cout<<"Age = " << age << "\n";
}
```

Bu erda butun sonni ifodalovchi Age o‘zgaruvchisiga 22.5 ham kasr qiymati beriladi. Biroq, endi kompilyatsiya paytida kompilyatorbizga xato haqida xabar beradi:

```
Compilation failed due to following error(s).
main.cpp: In function ‘int main()’:
main.cpp:5:18: error: narrowing conversion of ‘2.25e+1’ from ‘double’ to ‘int’ [-Wnarrowing]
    5 |     int age {22.5};
      |                  ^
```

Nol yordamida initsializatsiya qilish.

Figurali qavslar ichida initsializatsiya qilishda qiymatni o‘tkazib yuborishingiz mumkin:

int counter {};

yoki ushbu figurali qavsning ichida nol yozish orqali ham amalga oshirish mumkin:

int counter {0};

4-mavzu. C++ tilining amallari. Inkrement, decrement, sizeof, mantiqiy, razryadli, taqqoslash. Amallarning ustunliklari va bajarish yo‘nalishlari.

Amallar. Bajarilishi natijasida biror bir qiymat qaytaradigan barcha ifodalar C++ tilida amallar deyiladi. Amallar albatta biror bir qiymat qaytaradi. Masalan, 3+2 amali 5 qiymatni qaytaradi.

Operator — bu qandaydir amalni bajarish to‘g‘risida kompilyatorga uzatiladigan literaldir. Operatorlar operandlarga ta’sir qiladi. C++ da operandlar deb alohida literallar va butun ifodalar tushuniladi.

C++ tilida ikki ko‘rinishdagi operatorlar bor:

o‘zlashtirish operatorlari

matematik operatorlar

O‘zlashtirish operatori.

O‘zlashtirish operatori (=) o‘zidan chap tomonda turgan operand qiymatini tenglik belgisidan o‘ng tomondagilarni hisoblangan qiymatiga almashtiradi. Masalan,

x = a+b;

ifodasi x operandga a va v o‘zgaruvchilarni qiymatlarini qo‘shishdan hosil bo‘lgan natijani o‘zlashtiradi.

O‘zlashtirish operatoridan chapda joylashgan operand adresli operand yoki l–qiymat (inglizcha *left*-chap so‘zidan olingan) deyiladi. O‘zlashtirish operatoridan o‘ngda joylashgan operand operasion operand yoki r–qiymat deyiladi.

O‘zgarmaslar faqatgina r–qiymat bo‘lishi mumkin va hech qachon adresli operand bo‘la olmaydi, chunki dasturning bajarilishi jarayonida o‘zgarmas qiymatini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Matematik operatorlar.

C++ tilida 5 ta asosiy matematik operatorlar ko‘llaniladi: qo‘shish (+), ayirish (-), ko‘paytirish (*), butun songa bo‘lish (\) va modul bo‘yicha bo‘lish (%)(qoldiqni olish).

Ishorasiz butun sonlarni ayirishda, agarda natija manfiy son bo‘lsa g‘ayrioddiy natija beradi.

Listing 4.1. Ayirish natijasida butun sonni to‘lib qolishiga misol.

```
# include < iostream.h >
int main()
{
unsiegned int ayirma
```

```
unsisgned int kattaSon = 100;
unsigned int kichikSon = 50;
ayirma = kattaSon – kichikSon;
cout << “Ayirma“:<< ayirma<< “ ga teng\n”;
ayirma = kichikSon — kattaSon ;
cout << “Ayirma“:<< ayirma<< “ ga teng\n”;
endl;
return 0;
    }
```

NATIJA:

Ayirma: 50 ga teng

Ayirma: 4294967246 ga teng

Butun songa bo‘lish va qoldiqni olish operatorlari.

Butun songa bo‘lish odatdagi bo‘lishdan farq qiladi. Butun songa bo‘lishdan hosil bo‘lgan bo‘linmaning faqatgina butun qismi olinadi. Masalan, 21 sonini 4 ga bo‘lsak 5 soni va 1 qoldiq hosil bo‘ladi. 5 butun songa bo‘lishni qiymati, 1 esa qoldiqni olish qiymati hisoblanadi. Agar qiymat o’zlashtiruvchi o‘zgaruvchi butun son bo‘lsa, / amali bo‘linmaning butun qismini oladi. Qoldiq qismini olish uchun % belgisidan foydalaniladi.

Inkrement va dekrement.

Dasturlarda o‘zgaruvchiga 1 ni qo‘shish va ayirish amallari juda ko‘p hollarda uchraydi. C++ tilida qiymatni 1 ga oshirish inkrement, 1 ga kamaytirish esa dekrement deyiladi. Bu amallar uchun maxsus operatorlar mavjuddir.

Inkrement operatori (++) o‘zgaruvchi qiymatini 1 ga oshiradi, dekrement operatori (--) esa o‘zgaruvchi qiymatini 1 ga kamaytiradi. Masalan, s o‘zgaruvchisiga 1 qiymatni qo‘shmoqchi bo‘lsak quyidagi ifodani yozishimiz lozim.

C++ //s o‘zgaruvchi qiymatini 1 ga oshirdik.

Yuqoridagi ifodani quyidagicha yozishimiz mumkin edi.

```
s=s+1;
```

Bu ifoda o‘z navbatida quyidagi ifodaga teng kuchli:

```
s+=1;
```

Prefiks va postfiks.

Inkrement operatori ham, dekrement operatori ham ikki variantda ishlaydi: prefiksli va postfiksli. Perefiksli variantda ular o‘zgaruvchidan

oldin (++Age), postfiksli variantda esa o‘zgaruvchidan keyin (Age++) yoziladi.

Oddiy ifodalarda bu variantlarni qo‘llanishida farq katta emas, lekin bir o‘zgaruvchiga boshqa o‘zgaruvchining qiymatini o‘zlashtirishda ularning qo‘llanilishi boshqacha xarakterga ega. Perefeksli operator qiymat o‘zlashtirilguncha, postfiksli operator esa qiymat o‘zlashtirilgandan keyin bajariladi. Buni quyidagi listingdan ko‘rishimiz mumkin:

Listing 4.2. Prefiksli va postfiksli operatorlarni qo‘llanishi.

```
# include < iostream. h >
int main()
{
int myAge = 39;
int yourAge = 39;
cout << “Men” << MyAge <<”yoshdaman \n”;
cout << “Siz” << yourAge <<“yoshdasiz \n”;
myAge++ ; // postfiksli inkrement
++yourAge; // prefeksli inkrement
cout << “Bir yil o‘tdi …\ n”;
cout << “Men” << MyAge <<”yoshdaman \n”;
cout << “Siz” << yourAge <<“yoshdasiz \n”;
cout << “Yana bir yil o‘tdi \n”;
cout <<” Men”<< myAge++ <<“yoshdaman \n”;
cout <<”Siz”<<++yourAge<<“yoshdasiz \n”;
cout << “Ma’lumotlarni qaytadan”
cout << “chiqaraylik \n”;
cout <<” Men”<< myAge<<“yoshdaman \n”;
cout <<”Siz”<<yourAge<<“yoshdasiz \n”;
return 0;
}
```

NATIJA:
Men 39 yoshdaman
Siz 39 yoshdasiz
Bir yil o‘tdi …
Men 40 yoshdaman
Siz 40 yoshdasiz
Yana bir yil o‘tdi …

Men 40 yoshdaman
Siz 41 yoshdasiz
Ma’lumotlarni qaytadan chiqaraylik
Men 41 yoshdaman
Siz 41 yoshdasiz

Operatorlar prioriteti.

Murakkab ifodalarda qaysi amal birinchi navbatda bajariladi, qo‘shishmi yoki ko‘paytirishmi? Masalan:

```
x=5+3*8;
```

Agarda ifodada birinchi qo‘shish bajarilsa natija 64 ga, agarda ko‘paytirish birinchi bajarilsa natija 29 ga teng bo‘ladi.

Har bir operator prioritet qiymatiga ega. Ko‘paytirish qo‘shishga nisbatan yuqoriroq prioritetga ega. Shuning uchun bu ifoda qiymati 29 ga teng bo‘ladi.

Agarda ikkita matematik ifodaning prioriteti teng bo‘lsa, ular chapdan o‘ngga qarab ketma – ket bajariladi.

Demak, x=5+3+8*9+6*4 ifodada birinchi ko‘paytirish amallari chapdan o‘ngga qarab bajariladi 8*9=72 va 6*4=24. Keyin bu ifoda soddaroq ko‘rinish hosil qiladi: x=5+3+72+24

Endi qo‘shishni ham xuddi shunday chapdan unga qarab bajaramiz:

5+3=8; 8+72= 80; 80+24=104;

Lekin, barcha operatorlar ham bu tartibga amal qilmaydi. Masalan, o‘zlashtirish operatori o‘ngdan chapga qarab bajariladi.

Ichki qavslar

Murakkab ifodalarni tuzishda ichki qavslardan foydalaniladi. Masalan, sizga sekundlarning umumiy soni keyin esa barcha qaralayotgan odamlar soni, undan keyin esa ularning ko‘paytmasini hisoblash kerak bo‘lsin.

```
TotalPersonSeconds=((NumMinutesToThink+
NumMinutesToType)*60*(PeopleInTheOffice+ PeopleOnVocation ))
```

Bu ifoda quyidagicha bajariladi. Oldin NumMinutesToThink o‘zgaruvchisining qiymati NumMinutesToType o‘zgaruvchisi qiymatiga qo‘shiladi. Keyin esa hosil qilingan yig‘indi 60 ga ko‘paytiriladi. Bundan keyin PeopleInTheOffice o‘zgaruvchi qiymati PeopleOnVocation qiymatiga qo‘shiladi. Keyin esa sekundlar soni kishilar soniga ko‘paytiriladi.

Munosabat operatorlari

Bunday operatorlar ikkita qiymatni teng yoki teng emasligini aniqlash uchun ishlatiladi. Taqqoslash ifodasi doimo true (rost) yoki false (yolg‘on) qiymat qaytaradi. Munosabat operatorlarining qo‘llanilishiga oid misol 4.1. jadvalda keltirilgan.

4.1-jadval. C++ tilida ishlatiladigan amallar (operatorlar) ularning tasniflari

Operator	Tavsifi
::	Ko‘rinish sohasiga ruxsat berish
[ ]	Massiv indeksi
( )	Funksiyani chaqirish
.	Struktura yoki sinf elementini tanlash
->	
++	Postfiks inkrement
- -	Postfiks dekrement
++	Prefiks inkrement
- -	Prefiks dekrement
sizeof	O‘lchamni olish
()	Turga akslantirish
~	Razryadli mantiqiy INKOR
!	Mantiqiy inkor
-	Unar minus
+	Unar plyus
&	Adresni olish
*	Vositali murojaat
new	Dinamik ob’yektni yaratish
delete	Dinamik ob’yektni yo‘q qilish
casting	Turga keltirish
*	Ko‘paytirish
/	Bo‘lish
%	Bo‘lish qoldig‘i
+	Qo‘shish
-	Ayirish
>>	Razryad bo‘yicha o‘ngga surish
<	Kichik
<=	Kichik yoki teng
>	Katta
>=	Katta yoki teng
==	Teng

!=	Teng emas
&	Razryadli VA
^	Razryadli istisno qiluvchi YOKI
|	Razryadli YOKI
&&	Mantiqiy VA
||	Mantiqiy YOKI
?:	Shart amali
=	Qiymat berish
*=	Ko‘paytirish qiymat berish bilan
/=	Bo‘lish qiymat berish bilan
%=	Modulli bo‘lish qiymat berish bilan
+=	Qo‘shish qiymat berish bilan
- =	Ayirish qiymat berish bilan
<<=	CHapga surish qiymat berish bilan
>>=	O‘ngga surish qiymat berish bilan
&=	Razryadli VA qiymat berish bilan
^=	Razryadli istisno qiluvchi YOKI qiymat berish bilan
| =	Razryadli YOKI qiymat berish bilan
throw	Istisno holatni yuzaga keltirish
,	Vergul

C++ tili dastur tuzuvchisiga amallarning bajarilish tartibini o‘zgartirish imkoniyatini beradi. Xuddi matematikadagidek, amallarni qavslar yordamida guruhlarga jamlash mumkin. C++ tilida qavs ishlatishga cheklov yo‘q.

Listing 4.3. Qavs yordamida amallarni bajarish tartibini o‘zgartirish

```
#include iostream
int main()
{
int x=0, y=0;
int a=3, b=34, c=82;
x=a*b+c;
y=(a*(b+c));
cout<<<x<<'\n'<<<y<<'\n';
}
```

Dasturda amallar ustunligiga ko‘ra *x* qiymatini hisoblashda oldin a o‘zgaruvchi *b* o‘zgaruvchiga ko‘paytiriladi va unga *c* o‘zgaruvchi qiymatiga qo‘shiladi. Navbatdagi ko‘rsatmani bajarishda esa birinchi navbatda ichki qavs ichidagi ifoda — *(b+c)* qiymati hisoblanadi, keyin bu qiymat a ko‘paytirilib, u o‘zgaruvchisiga o‘zlashtiriladi. Dastur bajarilishi natijasida ekranga **x=184 y=348** satrlari chop etiladi.

5-mavzu. C++ kiritish va chiqarish operatorlari va mantiqiy(boolean) bilan ishlash.

C++ dasturlash tili bilan tanishib borishda davom etamiz. Tushunish oson bo‘lishi uchun console muhitida misollar ko‘ramiz. Console muhitida kiritish operatori cin>> orqali amalga oshiriladi. cin>> dan so‘ng istalgan ma’lumot turi e’lon qilingan o‘zgaruvchini joylashtirsak shu o‘zgaruvchi qiymatini qo‘lda kiritishimiz mumkin bo‘ladi.

Listing 5.1. Kiritish operatoriga misol.

```
#include <iostream.h>
using namespace std;
int main() {
int a=0;
cout<<"a sonini kiriting: "; cin>>a;
cout<<" Siz "<<a<<" sonini kiritdingiz "<
return 0;
}
```

Ushbu dasturni ishga tushirganingizda console kursori sizning biror qiymat kiritishingizni kutib turadi va berilgan o‘zgaruvchiga biror qiymat kiritganingizdan so‘ng, keyingi qator amallarini bajarishga o‘tadi. Yuqoridagi misolda 5 sonini kiritgan bo‘lsangiz, “Siz 5 sonini kiritdingiz” natijasini olishingiz mumkin.

Chiqarish operatori. C++ dasturlash tilida cout kalit so‘zi << bilan birgalikda chiqarish operatori yoziladi.

Operator — bu dasturlash tilida aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan. Ishni ma’lum qismini ya’ni C++ misol uchun chiqarish operatori, takrorlash operatori, shart operatorlari va bir qanchasini misol keltirsa bo‘ladi. Operatorlardan so‘ng ; bilan yakunlanadi. Ayrim operatorlar asosan {} figurali qavus bilan bilan ishning ma’lum bir vazifani bajaradigan qismi yakunlanadi.

endl — End Line (qator oxiri) bunda kursor qator oxirida bo‘lib shundagina keyin keladigan amal keyingi qatorga tushadi. Shuni unutmaslik kerakki, chiqarish operatoridan keyin ; ni yozish majburiy hisoblanadi.

Listing 5.2. Endl operatorining ishlatilishiga misol.

```
#include <iostream>
using namespace std;
```

```
int main()
{
  cout << "Salom!" << endl;
  cout << endl; // bunday qo‘llanilishi ham mumkin
  cout << "Mening ismim Alisher << std;
  return 0;
}
```

Kundalik hayotimizda biz tez-tez "Ha" yoki "yo‘q" savollariga aniq javob berish mumkin iboralarga duch kelamiz. Masalan. Olma mevami? – Ha! Qo‘ziqorin sizga yoqadimi? –Yo‘q!

"Olma — bu meva"degan gapni ko‘rib chiqamiz. Bu haqiqatmi? Ha! Olma haqiqatan ham mevadir. Yoki "Men Qo‘ziqorinni yaxshi ko‘raman" deb ayting. Agar siz qo‘ziqorinni xushlamasangiz, bu yolg‘on bo‘ladi.

Faqat ikkita mumkin bo‘lgan natijaga ega bo‘lgan shunga o‘xshash holatlar — ha/rost yoki yo‘q/yolg‘on, shu qadar keng tarqalganki, ko‘plab dasturlash tillari ular bilan ishlash uchun maxsus turni — mantiqiy ma'lumotlar turini qo‘shgan. C++ tilida bu bool ma'lumotlarining mantiqiy turi (ingl. «boolean»).

Mantiqiy o‘zgaruvchilar-bu faqat ikkita mumkin bo‘lgan qiymatdan iborat bo‘lgan o‘zgaruvchilar: true (1) va false (0).

Bool kalit so‘zi mantiqiy o‘zgaruvchini e'lon qilish uchun ishlatiladi:

bool b;

Mantiqiy o‘zgaruvchini ishga tushirish yoki o‘zlashtirish operatsiyasini bajarish true yoki false kalit so‘zlari yordamida amalga oshirilishi mumkin:

```
bool b1 = true; // nusxalovchi initsializatsiya
bool b2(false); // to‘g‘ridan – to‘g‘ri initsializatsiya
bool b3 { true }; // uniform- initsializatsiya (C++11)
b3 = false; // o‘zlashtirish amali
```

Minus (-) unar operatorining ishiga o‘xshash, uning yordamida biz raqamni manfiy qilishimiz mumkin, (!) yordamida biz true-ni false-ga va aksincha (false-ni true-ga) o‘zgartirishimiz mumkin:

```
bool b1 = !true; // b1 qiymati- false
bool b2(!false); // b2 qiymati - true
```

Aslida, mantiqiy qiymatlar true yoki false sifatida saqlanmaydi. Ular butun sonlar sifatida qayta ishlanadi: true o‘rniga bi1, false o‘rniga nol saqlanadi.

Shart operatortini ishlatilishida mantiqiy tipdan foydalanish

Ko‘pincha mantiqiy o‘zgaruvchilar if shart konstruksiyasida ishlatiladi:

```
if (shart) operator1;
```

yoki

```
if (shart) operator1;
else operator2;
```

Listing 5.3. shart operatorida mantiqiy tipning qo‘llanilishi

```
#include <iostream>
using namespace std;
 int main()
{
   std::cout << "butun son kiriting: ";
   int x;
   cin >> x;
   if (x == 0)
      cout << "Kiritgan soningiz nolga teng!" <<endl;
   else
      std::cout << "Kiritgan soningiz noldan farq qiladi" <<endl;
   return 0;
}
```

Listing 5.4. Munosabat operatorida mantiqiy tipning qo‘llanilishi

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main() {
  int x = 10;
  int y = 9;
  cout << (x > y);
  return 0;
```

}

Natija:1

5.1-masala. Shaxmat doskasining ikkita turli (x1, y1) , (x2, y2) koordinatalari berilgan (1-8 oraliqda yotuvchi butun sonlar). “Shoh bir yurishda bir maydondan ikkinchisiga o‘ta oladi” jumlani rostlikka tekshiring.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<math.h>
using namespace std;
int main(){
int x1, y1, x2, y2;
bool d;
cout << "x1="; cin >> x1;
cout << "y1="; cin >> y1;
cout << "x2="; cin >> x2;
cout << "y2="; cin >> y2;
d = (abs(x1 — x2) == **1** && y1 == y2) or (abs(y1 — y2) == **1** && x1 == x2)
or (abs(y1 — y2) == **1** && abs(x1 — x2) == **1**);
cout << "Jumlaning rostlik qiymati " << d;
}
	Koordinatalarni kiriting:
	x1=4
	y1=8
	x2=6
	y2=7
	jumlaning rostlik qiymati 0 ga teng

5.2-masala. Temperatura T_f Farangeytda berilgan. Temperatura qiymatini T_c Selsiyga o‘tkazuvchi dastur tuzilsin. $T_c = (T_f - 32) * \frac{5}{9}$

Dastur kodi:	Dastur natijasi:
#include<iostream> **using namespace** std; **int main**() { **double** Tf, Ts; cout<<"temperaturaning farangeytdagi qiymati = "; cin>>Tf;	Tf ni kiriting: 45 Ts=7.22222

```
Ts=((Tf-32)*5)/9;
cout<<"temperaturaning selsiydagi qiymati = ";
cout<<Ts;
}
```

5.3-masala. Qaysidir yil berilgan. Berilgan yilning qaysi yuz yillikka kirishini aniqlovchi programma tuzilsin. (Masalan:20-yuz yillikning boshi 1901-yil)

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main()
{
int n;
cin>>n;
cout<<(n-**1**)/**100**+**1**;
}
	n ni kiriting:
	2005
	21

5.4-Masala. Hafta kunlari quyidagicha tartibda berilgan. 0-yakshanba, 1-dushanba, 2-seshanba, 3-chorshanba, 4-payshanba, 5-juma, 6-shanba. 1-365 oraliqda yotuvchi K soni berilgan, Agar 1-yanvar dushanba bo‘lsa, kiritilgan K-kun haftaning qaysi kuniga to‘g‘ri kelishini aniqlovchi dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main()
{
int k;
cin>>k;
cout<<k%**7**;
}
	k ni kiriting:
	45
	3 kuniga to‘g‘ri keladi.

5.5-masala. Asilbek shunday ikkita a,b sonlarni oldiki, (10*27+22-3)*7-2022=a+b+1 tenglik bajariladi. Ammo noxosdan,

Asilbek bu sonlardan birini yo‘qotib qo‘ydi. Lekin aynan qaysisini yo‘qotganini bilmaydi.

Siz Asilbek yo‘qotgan sonni toping. Yagona qatorda bitta butun son Asilbek yo‘qotgan sonning qiymati kiritiladi. U son modul jihatdan 10^9 dan katta emas. Sizning vazifangiz ekranda Asilbek yo‘qotib qo‘ygan sonni chiqaring.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:
#include<iostream> **using namespace** std; **int main**(){ **int** a; cin>>a; cout<<-**1***a;}	a ni kiriting: 13 -13

5.6-masala. N ta talaba K ta niqob sotib oldilar va niqoblarni teng bo‘lib olishga kelishdilar. Har bir talaba nechtadan niqob olishini aniqlaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main()
{
 int n,k;
 cin>>n>>k;
 cout<<k/n;
 return 0;
}
	n ni kiriting:
	4
	k ni kiritng:
	15
	3

5.7-Masala. Otabek jamoat transporti uchun chipta sotib olish uchun shaxobchaga bordi. Transport agentligi tomonidan chegirmali chipta e’lon qilinganligi haqida xabar topdi.Omadli chipta bo‘lishi uchun chiptaning raqami 6 xonali bo‘lishi va birinchi 3 ta raqamining yig‘indisi oxirgi 3 ta raqamining yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak ekan. Sizning vazifangiz Omadli chipta dasturini tuzish.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main()
{
int n,a,b,c,d,f,g;
cin>>n;
a=n/100000;
b=((n/10000)%10);
c=((n/1000)%10);
d=((n/100)%10);
f=((n/10)%10);
g=n%10;
if((a+b+c)==(d+f+g))
cout<<"OAMDLI CHIPTA";
else cout<<"oddiy chipta";
}
	n ni kiriting:
	145235
	Omadli chipta

5.8-masala. Koshini maktabda matematika darsida o‘qituvchisi doskaga chiqardi va unga 2 ta a, b sonlarni aytdi. Koshi masala shartiga ko‘ra ushbu 2 ta sonni o‘rta arifmetigini va shu sonlarni o‘rta geometrigini hisoblab natijalarning qaysi biri kattaligini hisoblashi kerak. U bu masalani yechishga biroz qiynalyapti. Siz bu masalani yechishda unga yordam bering.

Dastur kodi:	**Dastur natijasi:**

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
long long a,b;
cin>>a>>b;
if(a==b) cout<<"=";
else cout<<">";
}
	a va b sonlarini kiriting:
	a=45 b=43
	>

5.9-masala. Dekard koordinatalar sistemasidagi A(A_x, A_y) va B(B_x, B_y) nuqtalarning koordinatalari berilgan. Shu nuqtalardan hosil bo‘lgan hosil bo‘lgan kesmaning A nuqtasini B nuqta atrofida soat

strelkasi bo‘ylab 180° burgandan keying A nuqtaning koordinatalarini aniqlaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int t,x1,x2,y1,y2;
cin>>t;
for(int i=0; i<t; i++){
cin>>x1>>y1>>x2>>y2;
cout<<2*x2-x1<<" "<<2*y2-y1<<"**\n**";
}
}
	Testlar sonini kiriting:
	1
	x1=4
	y1=3
	x2=7
	y2=8
	10 13

5.10-masala. Javohir matematikani yoshligidan yaxshi biladi, ammo ustozi Husayn bergan quyidagi savolga dastur tuzishda qiynalmoqda. Husayn A va B sonlarini o‘yladi ammo Javoxirga Bu sonlarning EKUBI va EKUKI ni beradi, Javoxir shu o‘ylangan sonlar ko‘paytmasini topib beruvchi dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int a,b,y;
cin>>a>>b;
y=a*b;
cout<<y; **return** 0; }
	ekub va ekuk larini kiriting:
	a=11
	b=4
	44

5.11-masala. a so‘mlik pulni 1 so‘mlik hamda 2 so‘mlik pullar yordamida eng kamida necha xil usulda to‘lash mumkin?

Dastur kodi:	Dastur natijasi:
#include<iostream> **using namespace** std; int main(){ int a; cin>>a; cout<<(a/2)+1;	a ni kiriting: 45 23 xil usulda

return 0;}	

5.12-masala. Raqamlari yig‘indisi N ga teng bo‘lgan eng kichik natural sonning 1-raqami chop etilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
long long n;
cin>>n;
cout<<n%9;
}
	n ni kiriting:
	134
	8

5.13-masala. Bir sutkadagi ikki vaqt ko‘rsatkichlari berilgan. Ikkinchi ko‘rsatilgan vaqt birinchi ko‘rsatilgan vaqtdan oldin kelmaganligi aniq. Ikki vaqt ko‘rsatkichlari oralig‘ida necha sekund borligini aniqlang. Elementlarni kiritayotganda 2 qatorda soat(h), minut(m), va sekund(s) lar berilgan bo‘ladi.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<cmath>
using namespace std;
int main(){
int h,m,s,a,b,h1,m1,s1;
 	
cin>>h>>m>>s>>h1>>m1>>s1;
a=h*3600+m*60+s;
b=h1*3600+m1*60+s1;
 	
cout<<abs(a-b);
}
	h , m , s,h1,m1,s1 larni kiriting:
	h=2
	m=6
	s=7
	h1=9
	m1=4
	s1=5
	25078

6-mavzu. C++ da shart operatorlari.

Odatda, dastur ketma-ket bajariladi. *If* ifodasi shartni tekshirishga imkon beradi (masalan, ikkita o‘zgaruvchining tengligi) va taqqoslash natijasiga bog‘liq bo‘lgan boshqa yo‘naltirish orqali dasturning bajarilishini o‘zgartiradi.

If operatorining eng oddiy ko‘rinishi quyidagicha:

```
If(shart)
ifoda;
```

Qavs ichidagi shart har qanday tekshirilishi kerak bo‘lgan ifoda bo‘lishi mumkin, ammo u odatda munosabatlar operatorlarini o‘z ichiga oladi. Agar bu ifoda noto‘g‘ri bo‘lsa, keyingi operator o‘tkazib yuboriladi. Agar u rost qiymatini qaytarsa, u holda operator bajariladi. Quyidagi misolda shart operatoriga misol ko‘rib chiqilgan:

```
if (bigNumber > smallNumber)
bigNumber = smallNumber;
```

Bu yerda bigNumber va smallNumber o‘zgaruvchilarining qiymatlari taqqoslanadi. Agar bigNumber o‘zgaruvchisining qiymati kattaroq bo‘lsa, unda ushbu dastur bo‘lagining ikkinchi qatorida uning qiymati smallNumber o‘zgaruvchisining qiymatiga teng bo‘ladi.

Qavsga olingan ifodalar bloki bitta ifodaga teng bo‘lganligi sababli, bu xususiyat if operatori bilan satr ortida juda keng bo‘lishi mumkin bo‘lgan butun bloklardan foydalanishga imkon beradi:

```
if(shart)
{
ifoda1;
ifoda2;
ifoda3
}
```

Ko‘pincha dasturlarda ma’lum bir shart bajarilganda (ya’ni, ushbu shart rost qiymatini qaytarganda) dastur bitta buyruqlar blokini bajarishi va bajarilmasa (ya’ni, ushbu shart noto‘g‘ri qiymatni qaytarganda) boshqa blokni bajarishi talab qilinadi.

Bir qator shartlarni tekshirish uchun bir nechta if ifodalarini ketma-ket ishlatishning yuqorida ko‘rsatilgan usuli juda samaralidir. Bunday hollarda dasturning o‘qilishini yaxshilash uchun siz *else* kalit so‘zidan foydalanishingiz mumkin.

```
if (shart)
ifoda;
```

```
else
ifoda;
```

Agar shart rost bo‘lsa, unda ifoda bajariladi va undan keyin keyingi ifoda bajariladi. Agar shart bajarilmasa, ya’ni shart false bo‘lsa, unda ifoda e’tiborga olinmaydi va dastur keyingi ifodani bajarishga o‘tadi.

Shuni yodda saqlash tutish lozimki, ifoda o‘rniga figurali qavsga olingan butun blok ishlatilishi mumkin.

Misol:

```
1: if(SomeValue < 10);
2: cout << "SomeValue is less than 10";
3: else
4: cout << "SomeValue is not less than 10!";
5: cout << "Done," << endl;
```

Yuqorida keltirilgan misoldagi 5 satr biz kiritgan shartga umuman bog‘liq emas. Ammo shartning rost yoki yolg‘on yoki rostligiga qarab 2 yoki 4 satrda keltirilgan kodlar ishlashi mumkin.

ICHMA-ICH SHART OPERATORLARI

If-else blokidagi ifoda bloklaridagi har qanday operatorlardan foydalanishda yana qo‘shimcha if va else operatorlaridan foydalanishda hech qanday cheklovlar yo‘q. Misol sifatida keyingi satrlarda bir nechta if operatorlari ichma-ich joylashtirishi keltirilgan:

```
if (shart1)
{
if (shart2)
ifoda1;
else
{
if (shart3)
ifoda2;
else
ifoda3;
}
}
else
ifoda4;
```

Ushbu dasturni quyidagicha tushunish mumkin: agar shart1 to‘g‘ri va shart2 to‘g‘ri bo‘lsa, ifoda1 ni bajaring. Agar shart1 rost bo‘lsa va shart2 rost bo‘lmasa, shart3 ni tekshiriladi va agar rost bo‘lsa, ifoda2 ni

bajariladi. Agar shart1 to‘g‘ri bo‘lsa va shart2 va shart3 bo‘lmasa, unda ifoda3 ni bajariladi. Nihoyat, agar shart1 noto‘g‘ri bo‘lsa, ifoda 4 bajariladi.

Mantiqiy shartlar:

Kichik: a<b

Kichik yoki teng: a<=b

Katta: a>b

Dan katta yoki teng: a>=b

a==b ga teng

Teng emas: a!=b

Turli qarorlar uchun turli harakatlarni bajarish uchun ushbu shartlardan foydalanishingiz mumkin.

C++ da quyidagi shartli bayonotlar mavjud:

- if — belgilangan shart rost bo‘lsa, kod blokda berilgan ifodani hisoblaydi;
- else — agar shart noto‘g‘ri bo‘lsa, bajarilishi kerak bo‘lgan kod blokini belgilash uchun foydalaniladi;
- else if — agar birinchi shart noto‘g‘ri bo‘lsa, sinov uchun yangi shartni belgilash uchun foydalaniladi;
- switch — bajariladigan ko‘plab muqobil kod bloklarini belgilash uchun foydalaniladi.

Shart operatorida doimiy ravishda bloklardan foydalanish xatoliklarni oldini oladi. Ba’zi dasturchilar oldin ochuvchi va yopuvchi qavslarni { , } yozish, undan keyin blok ichidagi operatorlarni yozish lozimligini ta’kidlashadi.

6.1-Listing. Berilgan a sonini juft yoki toqligini aniqlovchi dastur

```
#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int a;
cin>>a;
if(a%2==0)
{cout<<”juft”;
}
else {
cout<<”toq”;
```

```
}
return 0;
}
```

Operatorlar operandlar soniga ko‘ra 3 turga bo‘linadi:

Unar	Binar	Ternar

Ternar operatori – A ? X : Y

Agar A ifoda rost qiymat qaytarsa X ifoda bajariladi, aks holda ya’ni yolg‘on qiymat qaytarsa Y ifoda bajariladi.

Agar tekshirilayotgan shart nisbatan sodda bo‘lsa, shart amalini <<?:>> ko‘rinishini ishlatish mumkin. Bu operator quyidagi ko‘rinishga ega:

<shart ifoda> ? <ifoda1> : <ifoda2>;

if shart operatoriga o‘xshash holda bu shart amali quyidagicha ishlaydi:agar <shart ifoda > rost (true) bo‘lsa (ifoda1) bajariladi, aks holda <ifoda2>. Odatda ifodalar qiymatlari birorta o‘zgaruvchiga o‘zlashtiriladi

Masalan:

Z=(X<Y) ? X+15 : Y-25

X=15 Y=12

Z=-13

Izoh: Yuqoridagi masalada agar berilgan X soni Y sonidan kichik bo‘lsa X+15 ifoda, aks holda Y-25 ifoda bajarilsin deyilgan. Biz bergan namunada X qiymat Y qiymatdan katta bo‘lganligi sababli , ya’ni aks holda qismi ishlagani sababli Y-25 ifoda bajarildi va natija chiqarildi.

Mantiqiy operatorlar.

Mantiqiy toifa *bool* ikki turdagi qiymat qabul qilishi mumkin: true (rost,1) va false (yolg‘on, 0). Mantiqiy ma’lumotlari e’lon qilish uchun *bool* xizmatchi so‘zidan foydalaniladi.

Mantiqiy ifoda 1 (to‘g‘ri) yoki 0 (noto‘g‘ri) bo‘lgan mantiqiy qiymatni qaytaradi. Bu mantiqni shakllantirish va javoblarni topish uchun foydalidir.

Ifodaning (yoki o‘zgaruvchining) to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun () dan katta operator kabi taqqoslash operatoridan foydalanishingiz mumkin;

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
  float s, a, p, oy = **0**;
  cout << "s="; cin >> s;
  cout << "p="; cin >> p;
  a = s;
  while(a < **2** * s)
  {
  a += p * a / **100**;
  oy++;
  cout << oy << ")" << a << endl;
  }
  cout << oy << " oydan keyin " << a;
}
	1

Bool a, b;

Mantiqiy toifadagi o‘zgaruvchilarga qiymat berish quyidagicha amalga oshiriladi:

a = true; *// rost*

b = false; *//yolg‘on*

Mantiqiy amallar:

- !(inkor qilish) – mantiqiy operatori mantiqiy ifodalar yoki o‘zgaruvchilar oldidan qo‘yiladi. Mantiqiy ifoda yoki o‘zgaruvchining qiymatini teskarisiga o‘zgartiradi;

- && (mantiqiy ko‘paytirish) – mantiqiy operatori ikkita mantiqiy o‘zgaruvchini birlashtiradi. Agar ikkala o‘zgaruvchi ham rost qiymatga ega bo‘lsa natija rost, aks holda yolg‘on natija beradi;

- || (mantiqiy qo‘shish) – mantiqiy qo‘shish operatori ikkita mantiqiy o‘zgaruvchini birlashtiradi. Agar o‘zgaruvchilardan kamida bittasi rost qiymatga ega bo‘lsa natija rost, aks holda yolg‘on natija beradi.

Shart operatori va mantiqiy amallarga doir masalalar.

6.1-masala. N natural soni berilgan. Sizning vazifangiz N ta tomonga ega bo‘lgan qavariq ko‘pburchakning diagonallar sonini topishdan iborat.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
long long n;
cin>>n;
if(n<**4**) cout<<**0**;
else
cout<<(n*(n-**3**))/**2**;
return 0;}
	N ni kiriting:
	8
	Diagonallar soni= 20

6.2-masala. Ikki natural sonning eng katta umumiy bo‘luvchisini topadigan dastur tuzing. Bu dasturni rekursiya orqali amalga oshiring.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int kir(**int** a,**int** b) {
if(a!=b) {
if (a > b) a %= b;
else b %= a;
if (a == **0**) a = b;
if (b == **0**) b = a;
kir(a,b);
} **else return** a;
}int main() {
int x,y;
cin>>x>>y;
cout<<kir(x,y);
}
	x va y ni kiriting:
	x=25 y=45
	EKUB=5

6.3-masala. N natural soni berilgan. Bu sonning tub yoki tub emasligini aniqlaydigan dastur tuzing. Agar son tub bo‘lsa ekranga “tub” , aks holda “tub emas” yozuvi chiqarilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
  int n;
  bool b=true;
  cout<<"n ni kiriting =";
  cin>>n;
  for(**int** i=**2**; i<n; i++){
  if(n%i==**0**){
  b=false;
  break;
  }
  }
  if(b){
  cout<<n<<" tub son";
  }
  else{
  cout<<n<<" tub son emas";
  }
  return 0;
}
	n ni kiritng:
	16
	16 tub son emas

6.4-masala. Ikki natural sonning eng kichik umumiy karralisini topadigan dastur tuzing. Bu dasturni rekursiya va rekursiyasiz holatda amalga oshiring.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int kir(**int** a,**int** b) {
  if(a!=b) {
  if (a > b) a %= b;
  else b %= a;
  if (a == **0**) a = b;
  if (b == **0**) b = a;
  kir(a,b);
  } **else return** a;
	a va b ni kiriting:
	a=81 b=12
	EKUK=324

```
}int main() {
   int x,y;
   cin>>x>>y;
   cout<<x*y/(kir(x,y));
}
```

6.5-masala. Uchta son berilgan. Bunday uzunlikdagi segmentlardan uchburchak hosil qilish mumkinligini aniqlaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int a,b,c;
cout<<”uchburchak tomonlarini kiriting : “<<endl;
cout<<”a=”;
cin>>a;
cout<<”b=”;
cin>>b;
cout<<”c=”;
cin>>c;
if((a+b>c) && (a+c>b) && (b+c>a))
cout<<”uchburchak hosil qilib bo‘ladi”;**else** cout<<”uchburchak hosil qilib bo‘lmaydi”;
}
	uchburchak tomonlarini kiriting:
	a=3
	b=4
	c=5
	uchburchak hosil qilib bo‘ladi.

6.6-masala. Koordinata o‘qlariga parallel ravishda to‘g‘ri to‘rtburchakning uchta uchi berilgan, to‘rtinchi uchi koordinatasini aniqlaydigan dastur tuzilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int x1, y1, x2, y2, x3, y3, x4, y4;
cout << "x1="; cin >> x1;
	koordinata qiymatlarini kiriting:
	x1=4
	y1=0
	x2=4

cout << "y1="; cin >> y1;
cout << "x2="; cin >> x2;
cout << "y2="; cin >> y2;
cout << "x3="; cin >> x3;
cout << "y3="; cin >> y3;
if(x1 == x2) x4 = x3;
else if(x1 == x3) x4 = x2;
else if(x2 == x3) x4 = x1;
if(y1 == y2) y4 = y3;
else if(y1 == y3) y4 = y2;
else if(y2 == y3) y4 = y1;
cout << "4-nuqta " << "(" << x4 << "," << y4 << ")";
}
	y2=3
	x3=0
	y3=3
	4-nuqta (0,0)

7-mavzu. C++ da takrorlash operatorlari.

Agar siklning takrorlanishlar soni oldindan ma’lum bo‘lmasa, ya’ni hisoblash jarayonida qaysidir o‘zgaruvchining qiymatiga bog‘liq bo‘lsa u holda **do-while** yoki **while** operatoridan foydalaniladi.

Belgilangan shartga erishilganda, sikllar kod blokini bajarishi mumkin.

Sikllar qulay, chunki ular vaqtni tejaydi, xatolarni kamaytiradi va kodni o‘qishni osonlashtiradi.

C++ while sikli

while Belgilangan shart mavjud bo‘lganda, sikl kod bloki bo‘ylab aylanadi: Sintaksisi:

```
while (shart) {
  // kod bloki bajariladi
}
```

Quyidagi misolda, o‘zgaruvchi 5 dan kichik bo‘lsa, sikldagi kod qayta-qayta ishlaydi:

```
int i = 0;
while (i < 5) {
  cout << i << "\n";
  i++;
}
```

Eslatma: Shartda ishlatiladigan o‘zgaruvchini oshirishni unutmang, aks holda sikl cheksiz davom etadi.

do-while operatori siklda oldin sikl tanasini bir marta bajarib, so‘ngra tekshirish amali bajariladi. Uning sintaksisi umumiy ko‘rinishi:

do{
operator;
}while(shart);

while takrorlash operatori, operator yoki blokni takrorlash sharti yolg‘on, (false yoki 0) bo‘lguncha takror bajaradi. U quyidagi sintaksisga ega.

while (<ifoda >) <operator>;

Agar <ifoda> rost qiymatli o‘zgarmas qiymat bo‘lsa, takrorlash cheksiz bo‘ladi. <ifoda> takrorlash tanasidagi rost bo‘lib, uning qiymatiga tanasidagi hisoblash ta’sir etmaydi.

do-while operatorida siklning tanasi kamida bir marta takrorlanadi. Shu bir marta hisoblash ham yechilayotgan masalani

mohiyatini buzib yuborishi mumkin. Bunday holatlarda **while** sikl operatoridan foydalangan maqsadaga muvofiq hisoblanadi.

while operatori sikl tanasi ixtiyoriy operator yoki operatorlar majmuidan iborat bo‘lishi mumkin.

Agar shart **rost** qiymatga ega bo‘lsa, sikl tanasi bajariladi, aks holda, ya’ni shart yolg‘on qiymatga teng bo‘lsa sikl tugatiladi.

While sikl operatoridan qachon (shart) yolg‘on qiymat qabul qilsa chiqiladi. Ya’ni while operatoridan keyingi operatorga uzatiladi. Agar (shart) false qiymat qabul qilmasa, while sikl operatoridan chiqib ketilmaydi va bu jarayon **sikllanib qolish** deyiladi.

do xizmatchi so‘zidan keyingi operatorlar bajariladi, keyin **while** xizmatchi so‘zidan keying shart tekshiriladi. Agar shart rost bo‘lsa do xizmatchi so‘zidan keyingi operatorlar qayta bajariladi. Shart qayta tekshiriladi, bu jarayon shart yolg‘on natija berguncha takrorlanadi. Agar while xizmatchi so‘zidan keyingi shart yolg‘on bo‘lsa, boshqarilish do-while operatoridan keyingi operatorga uzatiladi.

do-while va **while** sikl operatorlarida sikl tanasi sifatida faqat bitta operator ishlatiladigan bo‘lsa, bu operatorni blok orasiga {} olmasdan ham yoziish mumkin.

Lekin professional dasturchilar har qanday holda sikl tanasini blokka {} olib yozishni tavsiya qilishadi. Bu esa sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan mantiqiy xatoliklarni oldini oladi.

7.1-Masala. n natural soni berilgan (n>1). (1+2+3+……+k)>=n shart bajariladigan eng kichik k sonini aniqlovchi dastur tuzilsin. 1 dan k gacha bo‘lgan yig‘indi ham ekranga chiqarilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
  int n, k = **0**, s = **0**;
  cout << "n="; cin >> n;
  while(n > s)
  {
  k++;
  s += k;
  }
  cout << "k=" << k << " " << "s=" << s;
  }
	N ni kiriting:
	5
	K=3 s=6

7.2-masala. A, B, C musbat butun sonlari berilgan. A x B to‘rtburchak ichida tomoni C bo‘lgan kvadratdan nechtasi sig‘ishini aniqlovchi dastur tuzilsin. Ko‘paytirish va bo‘lish amallarini ishlatmang.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<math.h>
using namespace std;
int main(){
int a, b, c, boyi = **0**, ans = **0**;
cout << "a="; cin >> a;
cout << "b="; cin >> b;
cout << "c="; cin >> c;
while(a >= c)
{
a -= c;
boyi ++;
}
while(b >= c)
{
ans += boyi;
b -= c;
}
cout << ans; }
	a=8 b=7 c=2
	12

7.3-masala. Satr berilgan. Satrdagi ortiqcha probellarni olib tashlovchi dasturi tuzilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<string>
using namespace std;
int main(){
string s,ans="";
getline(cin,s);
for(**int** i=**0**; i<s.size(); i++)
{
	Satrni kiriting:
	Salom dunyo
	Salom dunyo

```
        while(s[i]==' ' && s[i+1]==' ')
        i++;
        ans+=s[i];
                }
        cout<<ans;
}
```

7.4-masala. k natural soni va k to‘plam berilgan. Har bir to‘plam elementlarini kiritish 0 bilan tugaydi. Har bir to‘plam kamida 2 ta elementga ega. Elementlari o‘suvchi bo‘lgan to‘plamlar sonini chiqaruvchi dastur tuzing.

Dastur kodi:

```
#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
        int k, s=0;
        cout<<"To‘plamlar sonini kiriting k=";
        cin>>k;
        float a, a1;
        for(int i=0; i<k; i++)
        {
                bool osuvchimi=true;
                cout<<i+1<<"-to‘plam elementlarini
kiriting\n";
                cin>>a;
                do
                {
                        cin>>a1;
                        if(a1<=a && a1!=0)
osuvchimi=false;
                        a=a1;
                }
                while(a1!=0);
                s+=osuvchimi;
        }
        cout<<k<<" ta to‘plam ichida o‘suvchilar
soni"<<s;
}
```

Dastur natijasi:

```
        To‘plamlar sonini
kiriting k=2
        1-to‘plam
elementlarini kiriting
        1
        2
        0
        2-to‘plam
elementlarini kiriting
        3
        5
        7
        0
        2 ta to‘plam ichida
o‘suvchilar soni2
```

7.5-masala. Sizga butun sonlar to‘plami berilgan. To‘plamda 1 ta elementdan tashqari barchasini jufti bor. To‘plamdagi yagona jufti bo‘lmagan yolg‘iz sonni topadigan dastur tuzing. Masalan:[1,2,3,,4,3,2,1] to‘plamdagi yolg‘iz son 4 sonidir.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;int s[101];int main(){
int n,a;
cin>>n;
for(int i=0; i<n; i++){
cin>>a;
s[a]++;
}
a=0;
while(s[a]%2==0) a++;
cout<<a;
}
	N ni kiriting:
	7
	1 2 3 4 3 2 1
	4

For sikl operatori

Quyida **for** sikli sintaksis ko‘rinishi berilgan:

```
for (shart 1; shart 2; shart 3) {
  // for sikl tanasi }
```

Misol ko‘rib chiqamiz. Takrorlash Operatorida berilgan misoldagi kodni for tskilda yozamiz.

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main() {
  for (int i = 0; i <= 7; i++) {
    cout << i << "\n";
  }
  return 0;
}
```

Natijada ekranda 1 dan 7 gacha bo‘lgan sonlar ekranga chiqariladi.

Misolni tahlili: 1 — shart: sikl aylanishi jarayonida bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchi qiymati beriladi. int i = 0;

2 — shart: tskilni aylanish davrini belgilaysiz. bunda asosan boradigan son beriladi. Shuni yodda saqlash lozimki, sikl qadamiga teskari son qo‘yilganda tskil tugamaydi.

3 — shart: sikl qadami bo‘lib har bir aylangan vaqtda sikl bo‘gliq bo‘lgan o‘zgaruvchining oshib boradigan qiymati tushuniladi.

Misol: 0 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni faqat juft sonlarni chiqarish dasturini tuzish.

```
#include <iostream>
using namespace std;

int main() {
  for (int i = 2; i <= 10; i = i + 2) {
    cout << i << "\n";
  }
  return 0;
}
```

Natija sifatida ekranga 2 4 6 8 10 raqamlari chiqadi.

7.6-Masala. Natural n sonining faktoriali deb 1 dan n gacha bo‘lgan sonlar ko‘paytmasiga aytiladi. Sizga biror bir n natural soni berilgan. Berilgan n sonining faktorialini chiqaradigan dasturni tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
int n,sum=1;
cout<<”n ni kiriting=”;
cin>>n;
for(int i=1; i<=n; i++) {
sum*=i;
}
cout<<n<<” faktorial=”<<sum;
}
	n ni kiriting:
	5
	5 faktorial = 120

7.7-Masala. 1,1,2,3,5,8,… qatori Fibonachchi qatori deyiladi. Uchinchi elementdan boshlab har bir element oldingi ikkitasini yig‘indisiga teng bo‘lsa bunday sonlar Fibonachchi sonlar deyiladi. Fibonachchi qatorining n-sonini topadigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int n, f1 = **1**, f2 = **1**, f;
cin >> n;
for(**int** i = **1**; i <= n; i++)
{
if(i == **1** or i == **2**) f = **1**;
else f = f1 + f2;
f1 = f2;
f2 = f;
}
cout << f << " ";
}
	n ni kiriting:
	9
	9-fibonachchi soni=34;

7.8-masala. Berilgan formulalar orqali ε va π sonlarining taxminiy qiymatini topadigan dastur tuzing.

Bunda $e = 1 + \frac{1}{1!} + \frac{1}{2!} + \frac{1}{3!} + \frac{1}{4!} + \cdots$ va $\frac{\pi}{4} = 1 - \frac{1}{3} + \frac{1}{5} - \cdots$

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
double i, fakt=**1**, e=**0**, p=**1**;
for(i=**2**;i<**8**;i++) {
e+=**1**/fakt;
fakt*=i; }
bool b=**1**;
for(i=**3**;i<**10000**;i+=**2**){
if(b)p-=**1**/i;
else p+=**1**/i;
b=!b;
}
cout<<e<<" "<<p***4**;
}
	e va p sonlarining taxminiy qiymatlari:
	e=1.71806
	p=3.14139

7.9-masala. Agar biror-bir natural n sonning kvadrati birinchi kelgan n ta toq sonlar yig‘indisiga teng bo‘lsa, berilgan n sonini kvadratini yig‘indi orqali hisoblaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include <iostream>
using namespace std;
int main() {
int n;
cin >> n;
int sum = **0**;
for (**int** i = **1**; i <= **2***n-**1**; i += **2**) {
sum += i;
cout << i <<” + “<<” “;
}
cout<<” = “<<sum;
return 0;
}
	n ni kiriting:
	6
	1+3+5+7+9+11=36

7.10-masala. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi maydonning yuzasi berilgan. Bu maydonni hosil qilish uchun maydon tomonlari qiymatlarni necha xil usulda tuzish mumkinligini aniqlaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
long c=**0**,n;
cin>>n;
for(**int** i=**1**;i*i<=n;i++){
if (n%i==**0**) c++; }cout<<c;
}
	maydon yuzasini kiriting:
	4
	2 xil usulda tuzish mumkin.

7.11-Masala. Ikki natural sonning kublari yig‘indisi sifatida ifodalash mumkin bo‘lgan, eng kichik natural sonni topadigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:
#include<iostream> #include<cmath> **using namespace** std; **int main**(){ **int** n; cin>>n;	n ni kiriting: 45 eng kichik natural son:54

```
bool b=false;
while(!b){
for(int i=1; i<=cbrt(n);i++){
int j=round(cbrt(n-pow(i,3)));
if(i*i*i+j*j*j==n){
cout<<"eng kichik natural son="<<n; b=true;
break;
                }
                }
                n++;
}
return 0;
}
```

712-masala. Agar 100 bosh qoramolni 100 so‘mga sotib olish kerak bo‘lsa, 1ta buqaga 10 so‘m, 1 ta sigirga 5 so‘m va 1 ta buzoqqa 50 tiyin to‘lab , nechta buqa, sigir va buzoq sotib olish mumkinligini aniqlaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
// x – buqa soni
//y – sigir soni
// z – buzoq soni
// x*10 + y*5 + z*0.5 = 100
// x + y + z = 100
for(int i=1;i<=100;i++) {
for(int j=1;j<=100-i;j++) {
for(int k=1;k<=100-j-i;k++) {
if(i+j+k==100 && (i*10 + j*5 + k*0.5) == 100){
cout<<i<<" ta buqa\n";
cout<<j<<"ta sigir\n";
cout<<k<<" ta buzoq\n";return 0;
} } }} }
	100 so‘mga
	1 ta buqa
	9 ta sigir
	90 ta buzoq olish mumkin

7.13-masala. N(32<=n<=126) butun soni berilgan. Kodi n ga teng bo‘lgan simvol chop etilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<string>
using namespace std;
int main(){
int n;
cout<<”n=”;
cin>>n;
cout<<”bu butun sonning simvoli: “;
cout<<**char**(n);
cout<<” hisoblanadi.”;
}
	n ni kiriting:
	65
	bu butun sonning simvoli A hisoblanadi.

7.14-Masala. A va B butun soni berilgan (A<B). A va B sonlari orasidagi barcha butun sonlarni chiqaruvchi programma tuzilsin. Bunda har bir son o‘zining qiymaticha chiqarilsin. Ya’ni 3 soni 3 marta, 4 soni 4 marta chiqariladi.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<cmath>
using namespace std;
int main(){
int a, b;
cout << "a="; cin >> a;
cout << "b="; cin >> b;
for(**int** i = a ; i <= b ; i++)
{
for(**int** j = **0**; j < i; j++)
{
cout << i << " ";
}
cout << "\n";
}
}
	a va b sonlarini kiriting:
	a=2 b=5
	2 2
	3 3 3
	4 4 4 4
	5 5 5 5 5

7.15-Masala. X haqiqiy soni berilgan. Quyidagi funksiya hisoblansin.

$$f(x)=\begin{cases}2\sin x,\ agar\ \ x>0\\ x-6,\ \ agar\ \ x\le 0.\end{cases}$$

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<cmath>
using namespace std;
int main(){
  int x;
  cout << "x="; cin >> x;
  if(x>**0**) cout<<**2***sin(x);
  else cout<<x-**6**;
}
	x sonini kiriting:
	1.0
	1.68294

7.16-Masala. Bankka boshlang‘ich S so‘m qo‘yildi. Har oyda bor bo‘lgan summa p foizga oshadi (0<p<25). Necha oydan keyin boshlang‘ich qiymat 2 martadan ko‘p bo‘lishini hisoblovchi dastur tuzilsin. Bankda hosil bo‘lgan summa haqiqiy son ekranga chiqarilsin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

include<iostream>
using namespace std;
int main(){
  float s, a, p, oy = **0**;
  cout << "s="; cin >> s;
  cout << "p="; cin >> p;
  a = s;
  while(a < **2** * s)
  {
  a += p * a / **100**;
  oy++;
  cout << oy << ")" << a << endl;
  }
  cout << oy << " oydan keyin "
<< a;
}
	s ni kiriting:
	10000
	p ni kiriting:
	15
	1)11500
	2)13225
	3)15208.8
	4)17490.1
	5)20113.6
	5 oydan keyin 20113.6

7.17-Masala. Berilgan n natural sonining barcha bo‘luvchilarini, shuningdek ularning soni va yig‘indisini topib ekranga chiqaradigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int n,k=0,sum=0;
cout<<"n ni kiriting =";
cin>>n;
cout<<"n sonining bo‘luvchilari:\n;
for(int i=1; i<=n; i++){
if(n%i==0){
k++;
sum+=i;
cout<<i<<" ";
} }
cout<<endl;
cout<<"bo‘luvchilar soni "<<k<<" ga teng"<<endl;
cout<<"bo‘luvchilar yig‘indisi "<<sum<<" ga teng"<<endl;
}
	n ni kiriting:
	12
	n sonining bo‘luvchilari:
	1 2 3 4 6 12
	Bo‘luvchilari soni 6 ga teng;
	Bo‘luvchilari yig‘indisi 28 ga teng

7.18-masala. [2 ;100] oralig‘idagi barcha egizak sonlarni topadigan dastur tuzing. Bir-biridan 2 ga farq qiladigan ikkita toq tub sonlar egizak sonlar deyiladi. Masalan, 5 va 7 bunga misol bo‘la oladi.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
int c=0,w=0;
for(int i=2; i<=100; i++) {
bool b=1;
if(i%2==0 && i!=2)b=0;
for(int j=3; j<i; j+=2) {
	5 7
	11 13
	17 19
	41 43
	59 61

```
            if(i%j==0) {
               b=0;
               break;
            }
         }
         if(b) {
            c++;
            if(c==2 &&
w+2==i)cout<<w<<" "<<i<<endl;
            if(c==2)c=0;
            w=i;
         }
 }
}
```

7.19-masala. N soni berilgan. Bu sonning mukammal yoki mukammal emasligini aniqlaydigan dastur tuzing.Mukammal son deb o‘zining barcha bo‘luvchilari yig‘indisiga teng bo‘lgan songa aytiladi. Bunga misol qilib (28=1+2+4+7+14)ni olishimiz mumkin.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int n,k=**0**,sum=**0**;
cout<<"n ni kiriting =";
cin>>n;
for(**int** i=**1**; i<n; i++){
if(n%i==**0**){
sum+=i;
} }
if(n==sum)
cout<<"mukammal son";
else cout<<"mukammal son emas"; }
	n ni kiriting :
	45
	Mukammal son emas

7.20-Masala. Chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga bir xil o‘qiladigan sonlarga palindrom sonlar deyiladi. 1223221 soni palindrom songa misol bo‘lishi mumkin.

Berilgan son palindrom yoki palindrom emasligini aniqlaydigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
string s;
cin>>s;
bool b=**1**;
if(s.size()%**2**) {
for(**int** i=**0**; i<=s.size()/**2**; i++)
if(s[i]!=s[s.size()-i-**1**]) {
b=**0**;
break;
}
if(b)cout<<"palindrom";
else cout<<"palindrom emas";
} **else** cout<<"palindrom emas";
}
	s ni kiriting:
	777
	Palindrom son

7.21-masala. Kitob n ta sahifadan iborat . Bunday kitobning barcha sahifalarini raqamlash uchun zarur bo‘lgan raqamlar sonini topadigan dastur kodini yozing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int n;
cout<<"n=";
cin>>n;
if(n%**2**==**0**) {
 	
cout<<**2***n<<" ta son kerak";}
else cout<<**2***n+**1**<<" ta son kerak ";
}
	n ni kiriting:
	88
	176 ta son kerak

7.22-masala. Trolleybus chiptalari raqamlari olti xonali raqamlardir. Agar birinchi uchta raqamlar yig‘indisi oxirgi uchta raqam yig‘indisiga teng bo‘lsa,chipta omadli hisoblanadi. Masalan 627294 chipta omadli, chunki 6+2+7=2+9+4=15. Chipta omadli bo‘lishi uchun chipta raqamini zarur bo‘lgan holatlarini topadigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main() {
int i,j,k,l,m,n;
for(i=1; i<10; i++)
for(j=1; j<10; j++)
for(k=1; k<10; k++)
for(l=1; l<10; l++)
for(m=1; m<10; m++)
for(n=1; n<10; n++)
if(i+j+k==l+m+n)
cout<<i<<j<<k<<l<<m<<n<<endl;
}
	Bu holatlar cheksiz davom etadi, buni kompilyator orqali ishlatib ko‘rishingiz mumkin.

7.23-masala. Raqamlarining kublarining yig‘indisiga teng natural sonlar mavjud, masalan, 370 soni bunga misol, chunki $3^3 + 7^3 + 0^3 = 370$.Shu kabi sonlarni topadigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<cmath>
using namespace std;
int main(){
for(int i=1; i<=1000; i++){
int sum=0;
int t=i;
while(t>0){
int d=t%10;
sum+=pow(d,3);
t/=10;
}
if(sum==i){
cout<<i<<endl;
}
} }
	1
	153
	370
	371
	407

7.24-masala. Gomer Simpsonning tushlik tanaffusi T sekundni tashkil qiladi. Gomer N sekundda bitta gamburger, M sekundda bitta cheesburger yeyishi mumkin. Gomer tushlik paytida maksimal umumiy holatda nechta gamburger va nechta cheesburger yeyishi mumkin bo‘lgan holatni topadigan dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include <iostream>
using namespace std;
int main() {
int T, N, M;
cin >> T >> N >> M;
int max_hamburgers = 0;
for (int i = 0; i <= T / N; i++) {
int berilgan_vaqt = T — i * N;
int j = berilgan_vaqt / M;
int jami_burgerlar = i + j;
if (jami_burgerlar > max_hamburgers) {
max_hamburgers = jami_burgerlar;
}
}
cout << "Maximal darajada yeyishi mumkin bo‘lgani : " << max_hamburgers << endl;
return 0;
}
	t,n,m sonlarini kiriting:
	45
	12
	2
	Maximal darajada yeyishi mumkin bo‘lgani : 22

7.25-masala. n butun soni berilgan (n>0). Bir sikldan foydalangan holda quyidagi yig‘indini hisoblovchi programma tuzilsin.

1!+2!+3!+…..+n!

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include <iostream>
using namespace std;
int main() {
int n, sum = 0, fact = 1;
cout << "butun sonni kiriting: ";
cin >> n;
for (int i = 1; i <= n; i++) {
	n ni kiriting:
	4
	1 dan n gacha faktoriallar yig‘indisi 33 ga teng

```
        fact *= i;
        sum += fact;
    }
    cout << "1 dan n gacha faktoriallar yig‘indisi
"  << sum <<" ga teng "<< endl;
    return 0;
}
```

7.26-masala. n butun soni berilgan (n>1). Fibonachchi ketma-ketlikning dastlabki n ta hadini chiqaruvchi programma tuzilsin.

$F_1 = 1$, $F_2 = 1$ $F_K = F_{K-2} + F_{K-1}$; K=3,4,…

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
#include<cmath>
using namespace std;
int main(){
int n, f1 = **1**, f2 = **1**, f;
cout << "n="; cin >> n;
for(**int** i = **1**; i <= n; i++)
{
if(i == **1** or i == **2**) f = **1**;
else f = f1 + f2;
cout << f << " ";
f1 = f2;
f2 = f;
}
}
	N ni kiriting:
	12
	1 1 2 3 5 8 13 21 34 55 89 144

7.27-masala. N natural soni va N ta butun sondan iborat to‘plam berilgan. To‘plamdagi ketma-ket keladigan eng kichik elementlarning maksimal sonini aniqlovchi dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int n, a, min1, soni1, min, soni = **1**;
cout << "n="; cin >> n;
cin >> a;
	N ni kiriting:
	7
	1 5 8 9 12 45 11
	Min=1 soni=1

```
  min1 = a; soni1 = 1;
  for(int i = 2; i <= n; i++)
  {
    cin >> a;
    if(min1 == a)
    {
      soni1 ++;
      if(soni < soni1) soni = soni1;
    }
    if(a < min1 )
    {
      min1 = a; soni1 = soni = 1;
    }
    if(a > min1)
    {
      soni1 = 0;
    }
  }
  cout << "min=" << min1 << " " << " soni=" <<
soni;
}
```

7.28-masala. Quyidagi shartlardan birini bajaradigan yil kabisa yili hisoblanadi:

-Yil raqami 400 ga bo‘linsa

-Yil raqami 4ga bo‘linsa va 100 ga bo‘linmasa.

Sizning vazifangiz agar kiritilgan yil kabisa yili bo‘lsa “Kabisa yili” aks holda “Kabisa yili emas” yozuvini chiqaruvchi dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
  int n;
  cin>>n;
  if ((n%4==0 &&
n%100!=0)||(n%400==0))
    cout<<"Kabisa yili";
  else cout<<"Kabisa yili emas";
}
	N ni kiriting:
	2004
	Kabisa yili

7.29-masala. Kadrlar bo‘limida ish haqqini so‘mda oladigan 3 nafar xodim ishlaydi. Ulardan eng yuqori maosh oluvchining maoshi eng kam maosh oluvchidan qancha farq qilishini topuvchi dastur tuzing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
int a,b,c;
cin>>a>>b>>c;
if(a<b && b<c) cout<<c-a;
else if(a<c && c<b) cout<<b-a;
else if(b<a && a<c) cout<<c-b;
else if(b<c && c<a) cout<<a-b;
else if(c<a && a<b) cout<<b-c;
else if(c<b && b<a) cout<<a-c;
return 0;}
	a va b va c sonlarini kiriting:
	a=145000 b=47000
	c=150000
	farq=103000

7.30-masala. Shaxmat musobaqasida N ta jamoa qatnashadi. Agar bitta jamoa bitta sovrinni qo‘lga kirita olsa, oltin, kumush va bronza medallar to‘plamini taqsimlashning nechta variant mavjud?

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include<iostream>
using namespace std;
int main(){
long long n, mod = 1e9+7, sum = 1;
cin>>n;
if(n==1) sum = 1;
else if(n==2) sum = 2;
else{ sum*=n%mod;
sum%=mod;
sum*=(n-1)%mod;
sum%=mod;
sum*=(n-2)%mod;
sum%=mod;}
cout<<sum; }
	n ni kiriting:
	12
	1320 xil variant bor.

8-mavzu. C++da ko‘rsatkichlar va adres oluvchi o‘zgaruvchilar.

Ko‘rsatkichlar C++ dasturlash tilining kuchli qurollaridan biridir. Tushunchaning nomi nega ko‘rsatkich, u nimani ko‘rsatadi degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Ko‘rsatkich ham o‘zgaruvchi bo‘lib, u ham e’lon qilinadi va uning oddiy o‘zgaruvchilar e’lonidan farqi shundaki, ularni e’lon qilishga oldidan (*) yulduzcha qo‘yiladi. Ko‘rsatkich o‘zgaruvchi boshqa o‘zgaruvchining EHM xotirasidagi adresiga teng qiymatni oladi, ya’ni o‘sha o‘zgaruvchining adresini ko‘rsatadi. C++ dasturlash tilida tuzilgan dastur tarkibidagi o‘zgaruvchilar dastur kompilyatsiya qilingandan keyin kompyuter xotirasiga borib joylashadi. Kompilyator dastur matnini kompyuter xotirasiga joylashtirgandan so‘ng uning tarkibidagi o‘zgaruvchilar adresini ob’eykt kod sifatida qabul qilib oladi.

Masalan, int *x; yozuvi butun turli x nomli ko‘rsatkich o‘zgaruvchi, float *a; yozuvi esa a nomli haqiqiy turli ko‘rsatkich o‘zgaruvchi e’lon qilinganligini bildiradi. Yoki boshqacha qilib aytganda o‘zgaruvchi e’lon qilinishi chog‘ida uning oldiga (*) belgisi qo‘yilsa, uni ko‘rsatkichga aylantiradi. Bundan buyon «ko‘rsatkich o‘zgaruvchi» o‘rniga «ko‘rsatkich» so‘zidan foydalanamiz.

Shuni yodda saqlash kerakki, ko‘rsatkich qaysi turga mansub bo‘lsa, faqat shu turga taalluqli o‘zgaruvchilarning adreslarini aniqlay oladi.

Ko‘rsatkichlar bilan ikkita, ya’ni «*» va «&» operatorlari qo‘llaniladi. Bunda «&» operatori o‘zgaruvchining EHM xotirasidagi adresini aniqlaydi.

«*» operatori esa «&» aniqlangan o‘zgaruvchining o‘sha adresga joylashgan qiymatini aniqlaydi. Bu fikrlarni quyidagi dastur yordamida tushunib olish mumkin.

```
int main()
{
   int n,m, *x;
   n=423;
   x=&n;
   cout<<x<<endl;
   m=*x;
   cout<<m<<endl;
   return 0;
}
```

C++ dasturlash tilida tuzilgan dastur tarkibidagi o‘zgaruvchilar, o‘zgarmaslar va funksiyalar adreslarini kompyuter xotirasiga alohida saqlash va ular ustida amallar bajarish mumkin.

Ta’rif: Qiymatlari adres bo‘lgan o’zgaruvchilar ko‘rsatkich o’zgaruvchilar deb ataladi.

Ko‘rsatkichlar uch xil turda bo‘ladi:

- Funksiyaga ko‘rsatkich;
- Ob’yekt o‘zgaruvchiga ko‘rsatkich;
- Void ko‘rsatkich.

C++ dasturlash tili tarkibidagi ko‘rsatkichlarga boshlang‘ich qiymatlarmi berish uchun, albatta, biror o‘zgaruvchi orqali qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘rsatkichlarga boshlang‘ich qiymatlarni = belgisi yoki qavs ichiga olib berilish mumkin. Ko‘rsatkichlarni boshlang‘ich qiymatlarini berish uchun quyidagi dasturga e’tibor bering:

```
int main()
{
   int n=9,m=10;
   int *y=&n;
   int *x(&m);
   cout<<x<<endl;
   cout<<y<<endl;
   return 0;
}
```

C++ dasturlash tilida ko‘rsatkichlar ustida bajariladigan amallar quyidagilarni tashkil etadi:

-ob’yektga vositali murojat qilish amali;
-qiymat berish amali;
-ko‘rsatgichga o‘zgarmas qiymatni qo‘shish amali;
-ayirish amali;
-inkrement va dekrement amali;
-solishtirish amali.

C++ dasturlash tilida ko‘rsatkichlar ustida faqatgina yuqorida keltirilgan amallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ko‘rsatgichni aniqlash

Ko‘rsatgichni aniqlash uchun siz ko‘rsatgich ko‘rsatadigan ob’yekt turini va yulduzcha belgisini ko‘rsatishingiz kerak:

ma’lumot_tipi* ko‘rsatkich_nomi;

Ko‘rib turganimizdek, birinchi navbatda ko‘rsatgich ko‘rsatadigan ma’lumotlar turi va yulduzcha belgisi * mavjud va undan keyin ko‘rsatgich nomi beriladi.

Misol sifatida *int* tipidagi ob’yektga ko‘rsatgichni aniqlash quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

```
int* p;
```

Bunday ko‘rsatgich faqat *int* turidagi o‘zgaruvchining manzilini saqlashi mumkin, ammo hozircha bu ko‘rsatgich hech qanday ob’yektga murojaat qilmaydi va tasodifiy qiymatni saqlaydi. Biz hatto uni konsolga chiqarishga harakat qilishimiz mumkin:

```
#include <iostream>

int main()
{
   int* p;
   std::cout << p << std::endl;
}
```

Masalan, mening holatimda konsol "0x8" ni chiqardi — o‘n oltilik formatdagi ba’zi manzillar (odatda o‘n oltilik shakl xotirada manzillarni ifodalash uchun ishlatiladi). Ammo ko‘rsatgichni ba’zi qiymatlar bilan boshlash ham mumkin:

```
int* p{};
```

Muayyan qiymat ko‘rsatilmaganligi sababli, ko‘rsatgich qiymat sifatida 0 raqamini oladi. Ushbu qiymat hech narsani ko‘rsatmaydigan maxsus manzilni anglatadi. Bundan tashqari, aniq *null* bilan boshlash mumkin, masalan, maxsus *nullptr* doimiyidan foydalanish mumkin:

```
int* p{nullptr};
```

Umuman olganda hech kim ko‘rsatgichlarni ishga tushirishni taqiqlamaydi. Biroq, yuqoridagi kabi ma’lum bir qiymat yoki nol bilan boshlash tavsiya etiladi. Shunday qilib, masalan, kelajakda nol qiymat ko‘rsatgich hech qanday ob’yektga ishora qilmasligini aniqlashini bilib oldik.

Shuni ta’kidlash kerakki, yulduzcha pozitsiyasi ko‘rsatgichning ta’rifiga ta’sir qilmaydi: uni ma’lumotlar turiga yoki o‘zgaruvchining nomiga yaqinroq joylashtirish mumkin:

```
int* p1{};
int *p2{};
```

Shuni ham ta’kidlash kerakki, ko‘rsatgich qiymatining o‘lchami (saqlangan manzil) ko‘rsatgich turiga bog‘liq emas. Bu ma’lum bir platformaga bog‘liq. 32 bitli platformalarda manzillar hajmi 4 baytga, 64 bitli platformalarda esa 8 baytga teng. Masalan:

```
#include <iostream>

int main()
{
   int *pint{};
   double *pdouble{};
   std::cout << "*pint size: " << sizeof(pint) << std::endl;
   std::cout << "*pdouble size: " << sizeof(pdouble) << std::endl;
}
```

Bunday holda, har xil turdagi ikkita ko‘rsatkich aniqlanadi — int va double. Ushbu turdagi o‘zgaruvchilar har xil o‘lchamlarga ega — mos ravishda 4 va 8 bayt. Ammo ko‘rsatgich qiymatlarining o‘lchamlari bir xil bo‘ladi. Agar yuqoridagi kodni 64-bitli platformada bajarsak ikkala ko‘rsatgichning o‘lchami 8 baytga teng.

Ko‘rsatkich adresini olish va & operatori

Yordamida operatsiya & ba’zi bir ob’yektning manzilini, masalan, o‘zgaruvchining manzilini olish mumkin. Keyin bu manzil ko‘rsatgichga tayinlanishi mumkin:

```
int number {25};
int *pnumber {&number}; // pnumber ko‘rsatgichi raqam
o‘zgaruvchisining manzilini saqlaydi
```

&number ifodasi number o‘zgaruvchisining manzilini qaytaradi. Shuning uchun number o‘zgaruvchisi number o‘zgaruvchisining manzilini saqlaydi. Eng muhimi, number o‘zgaruvchisi int turiga ega va uning manzilini ko‘rsatadigan ko‘rsatgich ham int tupiga ega.

Agar biz o‘zgaruvchining manzilini konsolga ko‘rsatishga harakat qilsak, u o‘n oltilik qiymatni ifodalashini ko‘ramiz:

```
#include <iostream>

int main()
{
   int number {25};
   int *pnumber {&number}; // pnumber ko‘rsatgichi raqam
o‘zgaruvchisining manzilini saqlaydi
```

```
    std::cout << "number addr: " << pnumber << std::endl;
}
```

Ushbu hlatda konsolda dasturning quyidagi natija beradi:

```
number addr: 0x1543bffc74
```

Har bir alohida holatda, manzil har xil bo‘lishi mumkin va dastur turli xil ishga tushirilganda o‘zgarishi mumkin. Masalan, yuqoridagi holatda number o‘zgaruvchisining mashina manzili 0x1543bffc74. Ya’ni, kompyuter xotirasida number o‘zgaruvchisi joylashgan 0x1543bffc74 manzili mavjud. X o‘zgaruvchisi int turini ifodalaganligi sababli, aksariyat arxitekturalarda u keyingi 4 baytni egallaydi (ma’lum arxitekturalarda int turi uchun xotira hajmi farq qilishi mumkin). Shunday qilib, int turidagi o‘zgaruvchi 0x1543bffc74, 0x1543bffc75, 0x1543bffc76, 0x1543bffc77 manzillari bilan xotira hujayralarini ketma-ket egallaydi.



8.1. rasm. O‘zgaruvchining xotirada yacheykasida joylashuvi.

pnumber ko‘rsatkichi raqam o‘zgaruvchisi joylashgan manzilga, ya’ni 0x1543bffc74 manziliga murojaat qiladi.

Shunday qilib, number ko‘rsatgichi raqam o‘zgaruvchisining manzilini saqlashi ma’lum bo‘lsa, unda pnumber ko‘rsatgichining o‘zi qayerda saqlanadi? Buni bilish uchun biz pnumber o‘zgaruvchisiga & operatsiyani ham qo‘llashimiz mumkin:

```
#include <iostream>

int main()
{
    int number {25};
    int *pnumber {&number}; // указатель pnumber хранит адрес переменной number
    std::cout << "number addr: " << pnumber << std::endl;
    std::cout << "pnumber addr: " << &pnumber << std::endl;
}
```

Qiymatni manzil bo‘yicha olish

Ko‘rsatgich manzilni saqlaganligi sababli, biz ushbu manzilda saqlangan qiymatni, ya’ni number o‘zgaruvchisining qiymatini olishimiz mumkin. Buning uchun * yoki bo‘shatish operatsiyasi ("indirection operator" / "dereference operator") qo‘llaniladi. Ushbu operatsiyaning natijasi har doim ko‘rsatgich ko‘rsatadigan ob’yektdir. Biz ushbu operatsiyani qo‘llaymiz va raqam o‘zgaruvchisining qiymatini olamiz:

```
#include <iostream>

int main()
{
   int number {25};
   int *pnumber {&number};
   std::cout << "Address = " << pnumber<< std::endl;
   std::cout << "Value = " << *pnumber << std::endl;
}
```

9.1-masala. $\frac{\sin 5+1,75}{3e^{\cos 7}}$ ifodani hisoblaydigan dastur yozing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:
#include <iostream> #include <cstdlib> #include <cmath> **using namespace** std; **int main**() { cout<<(sin(**5.0**)+pow(**1.75**,**2.0**))/ (**3***exp(cos(**7.0**)))<<endl; **return 0**; }	0.32993

9.2-masala. Uchburchakning ikki tomonining uzunligini va ular orasidagi burchakning kattaligini va qolgan tomoni uzunligini ko‘rsatadigan dastur kodini yozing.

Dastur kodi:	Dastur natijasi:

#include <iostream>
#include <cstdlib>
#include <cmath>
using namespace std;
int main()
{
double a,b,alfa;
cout<<"ikki tomon uzunligini
kiriting: ";
cin>>a>>b;
cout<<"Ular urtasidagi burchakni
kiriting: ";
cin>>alfa;
cout<<" Qolgan tomonning uzunligi="
<<sqrt(a*a+b*b-**2***a*b*cos(alfa))<<endl;
return 0;
 	
}
	ikki tomon uzunligini kiriting: 4
	5
	Ular o‘rtasidagi burchakni kiriting: 90
	Qolgan tomonning uzunligi=7.67613

Nazorat savollari:

1. C++da qanday matematik funksiyalar mavjud?
2. C++da trigonometrik qanday trigonometrik funksiyalar mavjud?
3. C++da matematik funksiyalardan foydalanish uchun qaysi kutubxona faylini ulash kerak?

9-mavzu. C++ da matematik funksiyalar.

C++ dasturlash tilida raqamlarda matematik vazifalarni bajarish imkoniyatini beradigan ko‘pgina funksiyalar mavjud.

MIN va MAX

Ushbu funksiya yordamida argument sifatida berilgan o‘zgaruvchilarning eng yuqori qiymatini topish uchun foydalanish mumkin:

cout << max(13, 15);

va usbu oz’garuvchilarning kichik qiymatini topish uchun ishlatilishi mumkin:

cout << min(5, 10);

<cmath> Kutubxonasi. sqrt(Kvadrat ildiz), round(sonni aylantiradi) va log (natural logarifm) kabi boshqa funksiyalarni <cmath> kutubxonasida topish mumkin :

```
#include <iostream>
#include <cmath>
using namespace std;

int main() {
  cout << sqrt(64) << "\n";
  cout << round(2.6) << "\n";
  cout << log(2) << "\n";
  return 0;
}
```

Natija:

8

3

0.693147

Boshqa matematik funkstyalar. Boshqa Math funksiyalari (<cmath>kutubxonasida) ro‘yxatini quyidagi jadvalda topish mumkin:

9.1-jadval. <cmath> kutubxonasi funksiyalari va ularning vazifalari jadvali

Funksiya	Vazifasi
abs(x)	X ning mutlaq qiymatini qaytaradi. Ya’ni X sonni modulini qaytaradi.
acos(x)	X ning arccos radian bilan qaytaradi
asin(x)	X ning arcsin radian bilan qaytaradi

atan(x)	X ning arctg radian bilan qaytaradi
cbrt(x)	X ning kub ildizini qaytaradi
ceil(x)	X qiymatini eng yaqin butun songa qadar qaytaradi
cos(x)	X ning cos radian bilan qaytaradi
exp(x)	Expotensial qiymatni qaytaradi.
expm1(x)	ex -1 ushbu qiymatni qaytaradi.
fabs(x)	Haqiqiy son x ning modul qiymatini qaytaradi
fdim(x, y)	X va y o‘rtasidagi farqni qaytaradi
floor(x)	X qiymatini eng yaqin butun songa qaytaradi
hypot(x,y)	sqrt(x2 +y2) ushbu natijani qaytaradi.
fmod(x, y)	X /y ning haqiqiy qiymatning qoldiq qismini qaytaradi
pow(x, y)	x ni y darajaga ko‘taradi.
sin(x)	sin(x) ni hisoblaydi
tan(x)	tg(x) ni hisoblaydi. ctg ni hisoblash uchun ctg = 1/ tan(x); deb yoziladi.
sqrt(x)	X ni kvadrat ildizi
log(x)	X natural logorifmi

Shuni esda tutish kerakki, ushbu funksiyalarning operandlari har doim haqiqiy bo‘lishi kerak. Buning sababi shundaki, argumentlar ro‘yxatiga mos keladigan ortiqcha yuklangan funksiyalarning bir nechta nusxalari mavjud.

9.1-Listing. Ba’zi funksiyalarni qo‘llash misoli:

```
#include <iostream>
#include <math.h>

int main()
{
   std::cout << "abs(-3) = " << std::abs(-3)<< "\n";
   std::cout << "pow(-3, 2) = " << std::pow(-3, 2)<< "\n";
   std::cout << "round(-3.4) = " << std::round(-3.2)<< "\n";
   std::cout << "ceil(3.2) = " << std::ceil(3.2)<< "\n";
   std::cout << "floor(3.2) = " << std::floor(3.2)<< "\n";
   std::cout << "ceil(-3.2) = " << std::ceil(-3.2)<< "\n";
   std::cout << "floor(-3.2) = " << std::floor(-3.2)<< "\n";
```

```
}
```

Ushbu dasturni ishga tushirganda konsolda quyidagi natija chiqadi:

```
abs(-3) = 3
pow(-3, 2) = 9
round(-3.4) = -3
ceil(3.2) = 4
floor(3.2) = 3
ceil(-3.2) = -3
floor(-3.2) = -4
```

10-mavzu. Matritsa va massivlar.

Massiv – bu bir toifali, chekli qiymatlarning tartiblangan to‘plamidir. Massivlarga misol qilib matematika kursidan ma’lum bo‘lgan vektorlarni, matritsalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Massiv elementiga bir indeks orqali murojaat qilish mumkin bo‘lsa u **bir o‘lchamli massiv deyiladi**.

Bir o‘lchamli massivni e’lon qilish sintaksisi quyidagicha bo‘ladi.

< massiv_tipi> <massiv_nomi> [elementlar_soni]={boshlang‘ich qiymatlar};

Massivni dastur kodida e’lon qilishga misollar:

1. float a[5];
2. int m[6];
3. bool b[10];

Massiv elementlariga murojaat qilish oddiy o‘zgaruvchilarga murojaat qilishdan biroz farq qiladi. Massiv elementiga murojaat qilish uning indeksi orqali bo‘ladi.

a[1]=10; *//a massivining indeksi 1 bo‘lgan elementi 10 qiymat o‘zlashtirsin;*

cin>>a[2]; *// a massivining indeksi 2 bo‘lgan elementi kiritilsin;*

cout<<a[3]; *//a massivining indeksi 3 bo‘lgan elementi chiqarilsin;*

C++ da massiv indeksi 0 dan boshlanadi.

C++ da massiv 0-indeksli elementga o‘rnatilgan ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ixtiyoriy i-elementga murojaat a[i] yoki *(a+i) orqali bo‘lishi mumkin.

Massivni e’lon qilishda uning elementlariga boshlang‘ich qiymat berish mumkin va buning bir nechta usullari mavjud:

1. O‘lchami ko‘rsatilgan massivni to‘liq initsializatsiyalash;
2. O‘lchami ko‘rsatilgan massivni to‘liqmas initsializatsiyalash;
